

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM,
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI
MAGISTRATURA BO'LIMI

Qo'lyozma huquqida
UDK: 811.512.133:81-373/316.7

SHIRNAZAROVA ZARINA ALLABERDI QIZI

ZOOFRAZEOLOGIZMLARNING SEMANTIK
XUSUSIYATLARI VA LINGVOMADANIY TADQIQI

70230101 – Lingvistika (o'zbek tili) mutaxassisligi bo'yicha magistr akademik
darajasini olish uchun yozilgan

DISSERTATSIYA

Ilmiy rahbar:



f.f.f.d. (PhD), dots. Z. Umurqulov

TERMIZ – 2023

Magistrlik dissertatsiyasi mavzusi Termiz davlat universiteti rektorining 2022-yil 22 yanvardagi № 2-T/M sonli buyrug'i asosida tasdiqlangan.

Magistrlik dissertatsiyasi Termiz davlat universiteti O'zbek tilshunosligi kafedrasida bajarilgan.


Magistrlik dissertatsiyasi elektron nusxasi Termiz davlat universitetining rasmiy veb sahifasiga joylashtirilgan.

Dissertatsiya manzilining QR-kodi



Magistrlik dissertatsiyasi bilan Termiz davlat universitetining axborot-resurs markazida tanishish mumkin (51 raqam bilan ro'yxatga olingan. Manzil: Termiz shahri Barkamol avlod ko'chasi 43-uy.)

Ilmiy rahbar:



f.f.f.d. (PhD), dots. Umurqulov Z.

Kafedra mudiri:



f.f.f.d. (PhD), N. Amonturdiyev.

Magistratura bo'limi boshlig'i:



p.f.f.d. (PhD), Narbayev A.

**70230101 – Lingvistika (o‘zbek tili) mutaxassisligi magistranti Shirnazarova
Zarinaning “Zoofrazeologizmlarning semantik xususiyatlari va
lingvomadaniy tadqiqi” mavzusidagi magistrlik dissertatsiyasi
ANNOTATSIYASI**

Tadqiqot obyekti: Tadqiqot obyekti sifatida o‘zbek tilidagi zoofrazeologik birliklar tanlandi.

Tadqiqotning maqsadi: Zoofrazeologizmlarni leksik-semantik va lingvomadaniy xususiyatlarini tekshirishdan iborat.

Tadqiqot metodlari. Ishda tavsiflash, qiyosiy, etimologik, semantik tahlil usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilar:

- zoofrazeologik birliklar semantik strukturasi kompleks tahlil qilindi va mavzuiy guruhlariga ajratildi;
- zoofrazeologizmlarda qo‘llanilgan zoonimlar mazkur halq urf-odatlarini, tariixi, madaniy hayoti bilan bog‘liqligi aniqlandi;
- zoofrazeologizmlarni o‘rganilishini nazariy jihatlarini asoslandi;
- zoofrazeologik birliklarning lingvomadaniy jihatlarini ochib berildi.

Amaliy ahamiyati: Tadqiqot natijalari lingvokulturologiya va frazeologiyaga sohasiga oid izlanishlarni nazariy va amaliy ma’lumotlar bilan boyitadi. Ishda keltirilgan faktik materiallardan o‘zbek tilining frazeologiyasini mukammallashtirishda, oliy o‘quv yurtlarida maxsus kurs o‘qitishda, frazeologiya bo‘yicha qo‘llanmalar, lug‘atlar yaratishda foydalanish mumkin. To‘plangan dalillar, amalga oshirilgan tahlillar lingvokulturologik tahlilni o‘rganish uchun muhim material bo‘lib xizmat qiladi.

Tatbiq etish darajasi: Tadqiqotning amaliy ahamiyati shundaki, tadqiqot natijalaridan tilshunoslik, etnolingvistika, lingvokulturologiyada nazariy manba sifatida foydalanish mumkin.

Qo‘llanilish sohasi: Leksikologiya, leksikografiya, frazeologiya.

70230101 - master's thesis of Zarina Shirnazarova, a master's student of Linguistics (Uzbek language) on the topic "Semantic features of zoophraseologisms and linguistic-cultural research"

ANNOTATION

Research objects: Zoophraseological compounds in the Uzbek language were chosen as the object of research.

The purpose of the work: It consists in checking the lexical-semantic and linguistic features of zoophraseologisms.

Research methods: Descriptive, comparative, etymological, semantic analysis methods were used in the work.

The scientific novelty of the study is as follows:

- the semantic structure of zoophraseological units was comprehensively analyzed and divided into thematic groups;
- it was determined that the zoonyms used in zoophraseology are related to the customs, history, and cultural life of this people;
- the theoretical aspects of the study of zoophraseologisms were substantiated;
- linguistic and cultural aspects of zoophraseological units were revealed.

Practical significance: The results of the research will enrich research in the field of linguocultural and phraseology with theoretical and practical information. The factual materials presented in the work can be used to perfect the phraseology of the Uzbek language, to teach a special course in higher educational institutions, to create manuals and dictionaries on phraseology. Collected evidence, performed analyzes serve as important material for studying linguistic and cultural analysis.

Application level: The practical significance of the research is that the results of the research can be used as a theoretical source in linguistics, ethnolinguistics, and linguoculturology.

Field of application: Lexicology, lexicography, phraseology.

MUNDARIJA

KIRISH	6
I BOB. FRAZELOGIK BIRLIKLAR LINGVISTIK TADQIQOTLAR OBYEKTI SIFATIDA	
1.1-§. Tilshunoslikda frazeologik birliklarning o'rganilishi.....	9
1.2-§. Frazeologik birliklarning lingvomadaniy tahlil etishning zarurati.....	17
1.3-§. Frazeologizmlarning milliy-madaniy semantikasi.....	24
I bobga doir xulosalar.....	27
II BOB. ZOOFRAZELOGIZMLARNING TASNIFI	
2.1-§. Uy hayvon nomlari bilan bog'liq zoofrazeologizmlar.....	28
2.2-§. Yovvoyi hayvon nomlari bilan bog'liq zoofrazeologizmlar.....	38
2.3-§. Hayvonlarning tana a'zolari bilan bog'liq zoofrazeologizmlar.....	40
II bobga doir xulosalar.....	42
III BOB. ZOOFRAZELOGIZMLARNING LINGVOMADANIY TAHLILI	
3.1-§. Zoofrazeologik birliklarning lingvokulturologik xususiyatlar.....	45
3.2-§. Zoofrazeologizmlarda inson konsepti.....	50
3.3-§. O'zbek, fransuz, ingliz, nemis tillarida zoofrazeologizmlar	53
III bobga doir xulosalar.....	69
XULOSA	72
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI	76

KIRISH

Magistrlik dissertatsiyasi mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi.

Zamonaviy tilshunoslikda frazeologik birliklarni har xil aspektlarda faol o'rganish kuzatiladi: semantik, grammatik, lingvomadaniy, kognitiv va boshqalar. Oxirgi yillarda ushbu yo'nalishda qilinayotgan ishlarda alohida e'tibor berilayotgan bu til birliklarining antropomarkaziy ahamiyatidagi izlanishlardir, chunki ko'pgina umummadaniy etnik, ijtimoiy muommolarda ko'pincha til hodisasi o'rganiladi. Til tizimining muhim darajalaridan dunyoqarashini, turmush tarzini, hayvon obraziga munosabatini ochib beruvchi vosita bu frazeologiya hisoblanadi.

Hayvonlar obrazi asosida shakllangan zoofrazeologizmlar o'zbek tilida qator frazeologizmlar hayvonlarning u yoki bu xususiyatlarini takomillashtirish asosida shakllangan. Zoonimlar tushunchasi fanning xar-hil tarmoqlari sotsiologiya, psixologiya, madaniy antropologiya, lingvistikaning tadqiqot obyekti hisoblanadi, ammo tilshunoslikda u yetarlicha o'rganilmagan. Shunday bo'lsada u leksikologiya va frazeologiya kabi nominatsiyalarga ega. Bu bilan bitiruv malakaviy ishimizning dolzarbligini belgilaydi.

Shunday qilib tadqiqot dolzarbligi zoofrazeologizmlarning tilimizda yetarlicha o'rganilmaganligidandir. U tilimizning lug'at tarkibini boyitadi va ushbu lug'aviy birliklarni chuqur o'rganish katta ahamiyat kasb etadi. Frazeologizmlar aynan zoofrazeologizmlar tilimiz imkoniyatlarini oshirishda samarali vosita bo'lib xizmat qiladi.

Tadqiqot obyekti. Tadqiqot obyekti sifatida o'zbek tilidagi zoofrazeologik birikmalar tanlandi.

Tadqiqot predmetini zoofrazeologik birliklarning lingvomadaniy xususiyatlari tashkil etadi.

Tadqiqot maqsadi: Zoofrazeologizmlarni leksik-semantik va lingvomadaniy xususiyatlarini tekshirishdan iborat.

Tadqiqot vazifalari quyidagilar:

- Manbalardan hayvon nomlarini ifodalovchi birikmalarni tanlab olish;
- "Hayvon nomlari"ni ifodalovchi frazeologik birikmalarning semantik klassifikatsiyasini qilish;

- Zoonim leksikasi va uni o'rganish masalalarini hamda frazeologik birliklar tarkibida zoonimlarning o'rnini aniqlash;

- Zoofrazeologizmlarni semantik tahlil qilish, ya'ni frazeologik birliklarning umumiy ma'nolarini hosil bo'lishida zoonimlarning ahamiyatini belgilash;

- Zoofrazeologizmlarni semantik guruhlarga ajratib tahlil qilish.

Tadqiqot ishining ilmiy yangiligi.

-Zoofrazeologik birliklar semantik strukturasi kompleks tahlil qilindi va mavzuiy guruhlarga ajratildi;

-Zoofrazeologizmlarda qo'llanilgan zoonimlar mazkur halq urf-odatlarini, tarixi, madaniy hayoti bilan bog'liqligi aniqlandi;

-Zoofrazeologizmlarni o'rganilishini nazariy jihatlari asoslandi;

-Zoofrazeologik birliklarning lingvomadaniy jihatlari ochib berildi.

Tadqiqotning asosiy masalalari va farazlari: Ilmiy tadqiqot ishida zoofrazeologizmlarning lingvokulturologik xususiyatlari yoritildi va zoofrazeologiklar birliklar haqida aniq xulosalar berildi.

Tadqiqot mavzusi bo'yicha adabiyotlar sharhi: O'zbek tilshunosligida frazeologizm sohasida ko'pgina ishlar amalga oshirilgan, biroq frazeologizmlar alohida tarmoq sifatida yetarlicha o'rganilmagan. Shu sababli biz tadqiqot ishimizda Sh.Rahmatullayevning o'zbek tilining izohli frazeologik lug'ati, Tursunov, Muhiddinovning "Frazeologik birliklarning asosiy ma'no turlari" Mamatov "Frazeologizmlar shakllanishining nazariy asoslari" kitoblaridan unumli foydalangan holda quyidagi mualliflar nomidan nashr etilgan maqolalar D.Rodjabova "Zoofrazeologizmlar orasidagi semantik munosabat", Usmonqul.A "Frazeologizmlar shakllanishidagi asosiy tushunchalar" hamda o'zimizning, "Nemis va o'zbek tillarida o'simlik va hayvonlar nomlarining qo'llanishi"dan ham samarali foydalandim. Bundan tashqari Abdushukurov Baxtiyorning "XI-XIV asr turkiy yozma manbalar tilidagi zoonimlar" mavzusida yozilgan dissertatsiyadan va "O'zbek tilining izohli lug'ati" dan ham unumli foydalanildi. Malakaviy ishning III bobida qiyosiy tahlil muhim o'rin tutganligi sababli "Nemischa frazeologik lug'at" hamda inglizcha, fransuzcha o'quv lug'atlaridan material sifatida foydalanildi.

Bugungi kun jamiyat taraqqiyoti jahon talablari, asosida ish olib borish tezkor harakatni talab etar ekan, jamiyat o'zgarishlarini o'zida jamlagan, bugungi ijod talablarini qondira oladigan ilmiy ishlar yaratish muhim masaladir. Shunday ekan, ushbu tadqiqot milliy va lingvomadaniy masalalarga alohida e'tibor qaratildi.

Tadqiqotda qo'llanilgan metodikaning tavsifi. Ishda tavsiflash, qiyosiy, etimologik, konseptual tahlil, semantik tahlil usullaridan foydalanildi.

Tadqiqot natijalarining nazariy va amaliy ahamiyati.

Zoofrazeologizmlarning nazariy va amaliy holatini o'rganishda muhim ahamiyatga ega. Zamonaviy frazeologiyaning kelgusi fundamental muommolarini qayta ishlashdir. Bajarilgan tadqiqotning natijalari lug'atda o'zgartirish yasashi va lug'at boyligimizni oshiradi. Tadqiqot natijasidan tilshunoslikning leksikologiya bo'limini o'qitishda foydalanish mumkin.

Ishning tuzilmasi tavsifi. Ushbu magistrlik dissertatsiyasi kirish, uch bob, bob bo'yicha xulosa, umumiy xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'lib 80 sahifani tashkil qiladi.

I Bob. FRAZEOLOGIK BIRLIKLAR LINGVISTIK TADQIQOTLAR OBYEKTI SIFATIDA

1.1-§. Tilshunoslikda frazeologik birliklarning o'rganilishi

XX asrning boshlarida frazemalar tilshunoslikning alohida sohasi sifatida o'rganila boshlangan. Frazeologiyaning umumnazariy masalalari dastlab fransuz tilshunosi Sh.Balli tomonidan o'rganilgan. Sh.Balli o'z asarlarida so'z birikmalarini sistemalashtirib, anglatgan ma'nolari va sintaktik o'ziga xosligidan kelib chiqadigan, yaxlitligicha qo'llaniladigan turg'un birikmalarni frazemalar deb ataydi. Sh.Balli frazemalarni semantik hodisa deb qaraydi va semantik xususiyatni frazemalarning mutlaq belgisi deb hisoblaydi. Frazeologiya masalalarini tadqiq etish, ayniqsa, rus tilshunosligida jadal tus oldi¹. Frazeologiyaning nazariy va amaliy jihatlarini qamrab oluvchi monografiyalar, ilmiy maqolalar, amaliy qo'llanmalar, frazeologik lug'atlar yuzaga keldi. Frazemalarning morfologik xususiyati va paradigmaticasi o'rganildi, gapdagi sintaktik vazifalari aniqlandi, qiyosiy(tipologik tahlil qilindi, badiiy asar tili frazeologiyasi va uning stilistik vazifalari belgilandi, frazeologiyaga doir darslik va qo'llanmalar hamda lug'atlar yaratildi.

O'zbek tilshunosligida ham frazemalarni ilmiy tadqiq etish bo'yicha doktorlik va nomzodlik dissertatsiyalari himoya qilindi, o'nlab ilmiy maqolalar, o'quv qo'llanmalari, frazeologik lug'atlar yuzaga keldi². Prof. Sh.Rahmatullayevning "O'zbek frazeologiyasining ba'zi masalalari" nomli doktorlik dissertatsiyasi va shu nomli monografiyasi frazemalarning ilmiy tadqiqiga doir dastlabki tadqiqotlar hisoblanadi. Bu tadqiqotlarda frazemalar lug'aviy birlik sifatida o'rganilishi zarur ekanligi asoslandi va frazemalarning grammatik tabiati keng yoritildi. Monografiyada o'z ifodasini topgan fikr(mulohazalar, xulosalar frazemalarni semantik, grammatik stilistik jihatlardan o'rganishga asos bo'lib xizmat qilmoqda. Shuningdek, frazemalarning grammatik

¹ Каранг: Виноградов В.В. Избранные труды. Лексикология и лексикография. - М.: Наука, 1977. -С. 118-161. Мазкур асарда муаллифнинг бевосита фразеологияни ўрганишга бағишланган куйидаги ишлари мавжуд: "Основные понятия русской фразеологии как лингвистической дисциплины", "Об основных типах фразеологических единиц в русском языке".

² Бердиёров Х., Йўлдошев Б. Ўзбек фразеологиясига доир библиографик кўрсаткич. -Самарқанд: Нашриётсиз, 1977. – 38 б.

va semantik jihatlarini o'rganishga bag'ishlangan qator ilmiy ishlar³ ham o'zbek frazeologiyasining rivojiga asos bo'lmoqda. Frazemalarni stilistik yo'nalishda o'rganishga ham alohida e'tibor qaratilib, o'zbek yozuvchi va shoirlari asarlarida qo'llanilgan frazemalarning uslubiy jihatlarini tadqiq etildi va o'zbek badiiy adiblarining frazemalardan foydalanish mahorati va ularning uslubiy xususiyatlariga bag'ishlangan ilmiy tadqiqotlar⁴ yuzaga keldi.

B.Yo'ldoshevning doktorlik dissertatsiyasi⁵da ilk bor frazemalar funksional (uslubiy jihatdan sistem holatida o'rganilib, ularning nutq jarayonidagi uzual va okkazional vazifalari, badiiy matndagi pragmatik imkoniyatlari, funksional-uslubiy tavsifi boy til materiallari asosida tadqiq etildi.

A.Mamatovning "O'zbek tili frazemalarining shakllanishi masalalari"⁶ nomli doktorlik dissertatsiyasi frazemalar shakllanishining o'ziga xos vosita va usullari, ularning shakllanishida lisoniy va nolisoniy omillar, ifodaviy va mazmun jihatidan qaror topishida so'zlarning o'rni, ma'noviy shakllanish qirralari, shakllanishning motivlovchi va derivatsiya asoslari, til frazemalari asosida shakllanishning leksik va semantik xususiyatlari kabi dolzarb masalalar tahlil va tavsif etilgan.

Frazeologik etimologiya, frazeologik stilistika, turli tillar frazemalarini qiyosiy o'rganish frazeologik qatlamlarini belgilash, frazemalarni o'zlashtirish kabi masalalar, xalq tili frazeologiyasi, o'zbek folklori frazeologiyasi, o'zbek dialektal frazeologiyasi materiallari ham ilmiy tahlilga jalb etilishi maqsadga muvofiq. Frazemalarni komponent tahlil etish, komponentlarning frazemalarni

³ Раҳматуллаев Ш. Лексикология билан фразеология //Ҳозирги ўзбек адабий тили. -Тошкент, 1992. – Б. 49-186; Шу муаллиф. Ўзбек тилининг фразеологик луғати; Шу муаллиф. Ўзбек тилида феъл фраземаларнинг боғлашуви. -Тошкент: Ун-т, 1992. – 126 б.; Йўлдошев Б. Ҳозирги ўзбек адабий тилида фразеологик бирликларнинг функционал-услубий хусусиятлари: Филол.фанлари д-ри дисс. ... автореф. - Тошкент, 1993. – 46 б.; Маматов А.Э. Ўзбек тили фразеологизмларининг шаклланиши масалалари: Филол. фанлари д-ри дисс. ... автореф. - Тошкент, 2000. – 56 б.; Бозорбоев Қ.Т. Ўзбек сўзлашув нутқи фразеологизмлари: Филол. фанлари номзоди дисс... автореф. – Самарқанд, 2001. –22 б; Расулов И.И. Наречные фразеологические единицы в русском и узбекском языках: Автореф. дис. ... канд. филол. наук. - Ташкент, 1987. - 22 с.; Рафиев А.Р. Структурно- функциональные свойства фразеологических единиц узбекского языка: Автореф. дис. ... канд. филол. наук. - Ташкент, 1982. - 19 с.; Рафиев А. Иборалар - нуткимиз кўрки. –Тошкент: Ўзбекистон, 1985. –22 б.

⁴ Бердиёров Х., Йўлдошев Б. Ўзбек фразеологиясига доир библиографик кўрсаткич. –Самарқанд: Нашриётсиз, 1977.

⁵ Йўлдошев Б. Ҳозирги ўзбек адабий тилида фразеологик бирликларнинг функционал-услубий хусусиятлари. Филол.фанлари доктори диссертацияси автореферати. - Тошкент,1993. –46 б.

⁶ Маматов А.Э. Ўзбек тили фразеологизмларининг шаклланиши масалалари: Филол. фанлари д-ри дисс. ... автореф. - Тошкент, 2000. – 56 б.

shakllantirishdagi oʻrni kabi masalalar ham oʻzbek frazeologiyasi ilmi oldida turgan muhim muammolardan biridir⁷.

B.Yoʻldoshev «Frazeologik uslubiyat asoslari» asarida frazeologik sinonimlarning frazeologik variantlardan farqlarini qayd qilib, ularning qoʻllanishida frazeologik sinonimlarning ham biri oʻrnida ikkinchisini ishlatib boʻladi, lekin sinonim iboralar uslubiy jihatdan oʻzaro mos boʻlsa, adabiy-uslubiy normaga muvofiq kelsagina oʻzaro oʻrin almashadilar»⁸, deb taʼkidlaydi.

Keyingi yillarda oʻzbek tilshunosligida parafraza (perifraza)lar sinonimiyasi, soʻzlarning funksional-semantik sinonimlarini oʻrganish sohasida ham salmoqli ishlar amalga oshirildi.

H.Shamsiddinov ishlarida sinonimiya hodisasini juda keng maʼnoda talqin qilinadi, soʻzlarning funksional-semantik sinonimlari boʻlishi mumkin boʻlgan til birliklarini oʻndan ortiq guruhlariga ajratib oʻrganadi:

1. Sifatdosh oboroti funksional-semantik sinonim boʻladi: *qoʻy ogʻzi-dan choʻp olmagan (yuvosh), tinim nimalagini bilmaydigan (ishchan, gʻayratli, harakatchan), togʻni ursa talqon qiladigan (azamat, pahlavon)* kabi.

2. Oʻxshatish ifodasi boʻlgan birliklar funksional-semantik sinonim boʻladi: *uzukka koʻz qoʻygandek, pashsha uchsa eshitilgudek (juda, gʻoyatda, nihoyatda), igna bilan quduq qazishdek (sermashaqqat)* kabi.

3. Perifraza funksional-semantik sinonim boʻladi: *oq oltin ustalari (paxtakorlar), kumush tola (pilla), zangori olov (gaz)* kabi.

4. Sodda gap koʻrinishidagi birliklar funksional-semantik sinonim boʻladi: *tili boshqayu dili boshqa (ikkiyuzlama), bitta gap kam, ikkita gap koʻp (nozik), yer tagida ilon qimirlasa biladi (sezgir)*³ va boshqalar.

B.Qilichev “Frazeologik sinonimiya xususida” nomli maqolasida “bosh” komponentli frazeologik sinonimlarning miqdor jihatdan koʻpligining sabablarini tilda partonimiya (butunnom va boʻlaknom) hodisasining keng tarqalganligi bilan

⁷ Алматова Ш. Ўзбек тили фраземаларининг компонент таҳлили. Филол. Фан. номз. Дисс. – Тошкент, 2008. – Б. 12.

⁸ Йўлдошев Б. Фраzeологик услубият асослари. – Самарқанд, СамДУ нашри, 1999. 71-б.

³ Шамсиддинов Х. Сўзларнинг функционал-семантик синонимлари // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1995. – №1. 65-69-б; Шамсиддинов Х. Ўзбек тилида сўзларнинг функционал-семантик синонимлари: Филол. фан. д-ри. дис. ... автореф. – Тошкент, 1999. 14 -35 - б.

izohlashga intiladi. Bu ishda “bosh” komponentli frazeologizmlar uch guruhga ajratib o‘rganilgan:

a) faqat bosh so‘zi qatnashgan iboralarning o‘zaro sinonimligi: *boshiga yetmoq – boshini yemoq, boshi ko‘kka yetdi – boshi osmonda, boshi shishdi – boshi qotdi* kabilar;

b) “bosh” so‘zi bilan sinonim bo‘lgan so‘z qatnashgan iboralarning o‘zaro sinonimligi: *boshi achidi – miyasi achidi, boshida danak chaqmoq – miyasida danak chiqmoq, boshi g‘ovlab ketdi – miyasi g‘ovlab ketdi – kallasi g‘ovlab ketdi* kabilar;

v) “bosh” so‘zi bilan sinonim bo‘lmagan so‘z qatnashgan iboralarning o‘zaro sinonimligi: *bosh(i)ga ko‘tarmoq – shovqin solmoq, bosh(i)dan kechmoq – ko‘ngl(i)dan o‘tmoq, bosh(i)ni bukmoq – yuz(i)ni yerga qaratmoq*⁴ kabilar.

Turkiyshunoslikda S.Kenesbayev, Sh.Rahmatullayev, G.A.Bayramov, G.X.Axunzyanov, Z.G.Uraksin, L.K.Bayramova, M.F.Chernov, B.Yo‘ldoshev, A.Mamatov kabi tilshunoslarning monografik tadqiqotlari⁹ da frazemalarning leksik(grammatik, leksik(semantik tabiati va stilistik xususiyatlari o‘rganildi va ular turkiy frazeologik ilmining rivojiga sezilarli ta’sir bag‘ishladi.

Frazemalar struktural, semantik, funksional(uslubiy jihatlardan murakkab hodisa ekanligi barcha tilshunoslar tomonidan e’tirof etilgan. Frazemalarning tarkibiy va ma’naviy shakllanishi leksikaga nisbatan murakkab amalga oshadi. O‘zbek tilshunosligida frazemalar "so‘zga muqobil" nazariyasi asosida tadqiq va tavsif etildi. Bu nazariyaga ko‘ra, frazemalar ham leksemalar kabi nominativ xususiyatiga ega bo‘lgan til birligidir deb e’tirof etilib, leksemaning **alohida shakli** sifatida tadqiq etildi va leksikologiya tarkibida o‘rganildi. Darhaqiqat, frazemalarning vazifaviy xususiyatlari leksemalarga monand bo‘lsa-da, frazemalar murakkab til birligi bo‘lganligidan leksemalardek tadqiq va tavsif etish yetarli emas. Frazemalar so‘z va so‘z shakllaridan shaklan tarkib topadi. Leksemalarning genetik asosi frazemalarning yuzaga kelishi uchun asosiy manba hisoblanadi,

⁴ Қиличев Б. Фразеологик синонимия хусусида // Илм сарчашмалари. УрДУ нашри, 2005. – № 3. – Б. 52-54

⁹ Қаранг: Ройзензон Л.И. и другие. Материалы к общей библиографии по вопросам фразеологии; Ройзензон Л.И. и другие. Библиографический указатель литературы по вопросам фразеологии. – Ташкент, 1965. – 142 с.

chunki aynan leksemalar frazemalar uchun "qurilish ashyosi"dir. Ammo "frazeologik birlik ifoda plani bilan mazmun planining o'ziga xos qarama(qarshiligi va birligi sifatida yuzaga keladi, shunga ko'ra, frazeologik birliklar alohida yondashishni, o'rganishni talab qiladi"¹⁰.

Avvalo, frazemalar muayyan shaklga ega bo'lib, ularning shakllanishi uchun leksemalar moddiy asos bo'ladi. Turli leksemalarning xilma(xil semantik uyg'un yoki semantik nouyg'un) kombinatsiyalari frazemalarni shakllantiradi va ularning tarkibida turli ma'noli leksemalar ishtirok etadi. Bu esa leksemalarning frazeologik kombinatsiyalar tarkibidagi o'rni aniqlashni taqozo etadi. O'zbek tili frazemalarining qaror topishida faol va nofaol leksemalar ishtirok etib, ular frazemalarning nafaqat shaklan, balki semantik qaror topishida asos bo'ladi¹¹.

Frazemalarning komponentlari u yoki bu darajada ma'no mustaqilligiga ega, frazemik ma'noni yuzaga keltirishda ishtirok etishiga ko'ra komponentlardan biri asosiy tayanch va mantiqiy asos hisoblanadi. Tilshunoslikda frazemalar tarkibidagi leksemalar o'zining "xususiy ma'nolarini", "ma'no mustaqilligini", "leksemalik darajasini yo'qotadi", "xususiy ma'nosi kuchsizlanadi" kabi talqinlar mavjud. V.V.Vinogradov "frazemalarning noaniqlik, yopiqlik, shuningdek, so'z(komponentlarining nomustaqilligi turli frazemalarda har xil bo'ladi"¹² deb ta'kidlasa, A.I.Smirnitskiy "komponentlarini leksema deb atash, ammo ularni o'ziga xos holda qo'llash zarur"¹³, A.V.Kunin "komponentlar o'zlarining so'zlik xususiyati bilan farqlanadi"¹⁴, SH. Rahmatullayev "komponentlar o'zlarining xususiy ma'nolarini saqlab qolsa-da, ularni tayanch va notayanch a'zo sifatida talqin qilish zarur"¹⁵, M.Umarxo'jayev, komponentlar semantik "kuchsizlansa-da" ular leksemalar"¹⁶ dir kabi fikrlarni aytganlar. Rus tilshunosi A.I.Molotkov "komponentlarni leksemalar bilan aralashtirib bo'lmaydi"¹⁷ deb ta'kidlaydi.

¹⁰ Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг фразеологик луғати. – Тошкент: Фан, 1966. – Б. 4.

¹¹ Алматова Ш. Ўзбек тили фраземаларининг компонент таҳлили. Филол. Фан. номз. Дисс. – Тошкент, 2008. – Б. 14.

¹² Виноградов В.В. Основные типы лексических значений слова // Вопр. яз-я. –1953. - № 5. -С. 21.

¹³ Смирницкий А.И. Лексикология английского языка. - М.: Наука, 1956. - С. 207.

¹⁴ Кунин А.В. Курс фразеологии современного английского языка. – М.: Наука, 1981. - С. 71.

¹⁵ Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилида феъл фраземаларнинг боғлашуви. -Тошкент: Фан, 1986. – Б. 6.

¹⁶ Умарходжаев М.И. Основы фразеологии. - Ташкент, 1983. -С. 27-40.

¹⁷ Молотков А.И. Основы фразеологии русского языка. – Л.: Наука, 1977. - С. 62.

Ko‘rinadiki, tilshunoslikda frazemalar tarkibidagi so‘zlar leksik ma‘nosini yo‘qotgan, so‘zdan tashqaridagi til hodisasi sifatida qaralsa, boshqa tilshunoslar komponentlar o‘zlarining leksik xususiyatlarini saqlab qoladi, ammo bu turli frazemalarda turlicha yuz beradi, deb e‘tirof etadilar. Aksariyat tilshunoslar leksemalar frazemalar tarkibiga kirdandan keyin ham o‘zlarining leksik ma‘nolarini saqlab qolishini e‘tirof etadilar. Ammo ayrim frazemalarda leksik ma‘no to‘liq saqlanadi, boshqalarida esa leksik ma‘no bir qadar kuchsizlanadi.

Demak, frazemalarning komponentlarini leksemalar deb hisoblash, ammo ularning qo‘llanish darajasi, muayyan frazemaning shakllanishidagi rolini alohida o‘rganish lozim. Masalan, **og‘zidan gullamoq – nojo‘ya, noo‘rin gaplarni gapirmoq** frazemasini tarkibidagi **og‘iz** komponenti semantik tayanch a‘zo bo‘lsa, **gullamoq** komponenti esa grammatik tayanch komponentdir. Semantik tayanch a‘zo fe‘l leksema bilan birikib fe‘l frazemasini hosil qiladi. Komponentlarning leksik xususiyatlari ibora tarkibida qatnashgan komponentlar orasidagi sintaktik bog‘lanishni¹⁸ ta‘minlaydi.

Frazemalar tarkibidagi leksemalar turli so‘z turkumlari va leksik semantik guruhlarga tegishlidir. Izohli frazeologik lug‘atlar, ruscha o‘zbekcha va o‘zbekcha ruscha umumfilologik lug‘atlarda o‘z ifodasini topgan frazemalar komponentlarining turli tumanligi fikrimizni yaqqol tasdiqlaydi.

Ayrim leksemalar *Daqyonusdan qolgan, Almisoqdan qolgan, chuchvarani xom sanamoq, tarvuzi qo‘ltig‘idan tushdi* kabi yagona frazema tarkibidagina ishtirok etsa, **yurak, ko‘z, quloq, yuz, qo‘l** kabi somatik, **sichqon, tuya, it** kabi zoonimik, **tushmoq, o‘tmoq, tiqmoq** kabi harakatni ifodalovchi leksemalar o‘ntadan yuztagacha va undan ortiq frazemalarning tarkibida komponent sifatida qatnashadi. Frazemalarning grammatik shakllanishida fe‘l komponent alohida o‘rin egallaydi. O‘zbek tili frazemalarining ko‘pi fe‘l leksemalar vositasida shakllanib, fe‘l grammatik tayanch komponent sifatida qatnashadi va o‘zbek tili frazemalarining asosiy qismini fe‘l frazemalar tashkil etadi. Frazemalarning tarkibidagi semantik tayanch komponentlar frazemalarning semantik tizimini

¹⁸ Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг фразеологик луғати. – Тошкент: Фан, 1966. – Б.8.

shakllantiradi. Frazeologik faol komponentning shakllantirish ko‘lami ot, fe‘l, sifat, ravish kabi leksik grammatik to‘rt guruhga xos frazemalarning ifodaviy shakllanishida ko‘rinadi.

Shakliy jihatdan frazemalar so‘zlarning uyushmasi asosida shakllanganligi uchun ham "iboraning ifoda plani deb leksemalar va ularni bog‘lash uchun xizmat qiladigan morfemalar ko‘zda tutiladi"¹⁹.

Frazemalarning ifodaviy shakllanishida leksemalar o‘zaro qanday bog‘lashuvga kirishishi ham muhim hisoblanadi. So‘zlarning boshqa so‘zlar bilan o‘ziga xos yo‘llar vositasida birikuvi natijasida turg‘un, obrazli, ekspressiv, yaxlit ma‘noga ega bo‘lgan yangi strukturali va yangi ma‘noli frazemalar shakllanadi.

Frazemalar ikki yoki undan ortiq mustaqil yoki yordamchi so‘z turkumlariga tegishli leksemalardan tashkil topadi. Ular mustaqil yoki yordamchi so‘z turkumlariga tegishli bo‘ladi. **Peshanasi sho‘r, adi-badi aytishmoq, podadan oldin chang chiqarmoq, so‘xtasi sovuq, boshi osmonga yetmoq** kabi bog‘lanmalar u yoki bu leksemalarning o‘zaro sintaktik bog‘lanishi asosida yuzaga keladi. Frazemalar ham bog‘lanmalardir, ammo frazemalar ko‘chma ma‘noli, obrazli, turg‘un bog‘lanmalardir. Shuning uchun ham turg‘un bog‘lanmalar ma‘no xususiyatiga ko‘ra: 1) to‘g‘ri ma‘noli turg‘un bog‘lanmalar; 2) ko‘chma ma‘noli turg‘un bog‘lanmalar²⁰ ga ajraladi. To‘g‘ri ma‘noli turg‘un bog‘lanmalar narsa hodisalarning nomini atab, nominativ vazifani bajarsa, ko‘chma ma‘noli turg‘un bog‘lanmalar nominativ vazifa bajarish bilan birga, narsa hodisani obrazli ifodalab tasvirlaydi.

Frazemalarni tashkil etgan leksemalarning o‘zaro grammatik va semantik bog‘lanish uyg‘un bo‘lishi kerak. **Bosh** leksemasi frazemik faol bo‘lsa-da, har qanday leksema bilan bog‘lanib ketavermaydi. Tilimizda **boshdan kechirmoq, boshini yemoq** tarzida o‘zaro bog‘lanish mavjud bo‘lgani holda, "boshini ichmoq" tarzida bog‘lanishga semantik nouyg‘unlik yo‘l qo‘ymaydi.

¹⁹ Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг фразеологик луғати. – Тошкент: Фан, 1966. -Б. 4.

²⁰ Турсунов У. ва бошқалар. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Тошкент: Ўқитувчи, 1992. – Б. 57.

Rus tilshunosi Y.A.Gvozdev "soʻzlar asosida shakllangan frazemalar"ni ham eʼtirof etadi. Faol leksemalar faqatgina frazemalarni shaklan qaror toptirib qolmasdan, balki ularning maʼno jihatidan ham shakllanishida alohida oʻrin egallaydi. Shuning uchun frazeologik tadqiqotlarda "semantik tayanch komponent" va "semantik notayanch komponent"²¹ kabi atamalar qoʻllaniladi.

V.Vinogradov: "Frazemalar til elementlarining kombinatsiyalaridir va oʻziga xos yaxlit semantik xususiyatga ega boʻlgan kommunikativ birlikdir"²², - deb taʼkidlaydi. Oʻzbek tili frazemalarining komponent tarkibidagi faol leksemalarni aniqlash soʻzlarning distributiv aloqalari, ularning bogʻlanish qonuniyatlarini oydinlashtirish imkoniyatini yaratadi.

Oʻzbek tilshunosligida frazemalarning komponentlari ilk bor Sh.Rahmatullayev, A.Isayevlarning tadqiqotlarida ilmiy tahlil etilgan.

SH.Rahmatullayev ilmiy tadqiqotlarida komponentlarning frazemalar maʼnosini shakllantirishdagi oʻrni masalasida fikr yuritib, komponentlar oʻzlarining soʻz sifatidagi maʼnolarini muayyan maʼnoda yoʻqotishi va frazmadan umumlashgan maʼno yuzaga chiqishini eʼtirof etadi. Shu bilan birga komponentlarning frazemalarning maʼno shakllanishi va maʼno taraqqiyotiga sezilarli taʼsir koʻrsatishini va frazemalar avvalo semantik hodisa ekanligini taʼkidlaydi²³.

A.Isayev oʻz tadqiqotlarida somatik leksemalarning frazemalarni shakllantirishdagi oʻrnini, xususan **koʻz, bosh, yuz, bet** kabi leksemalarning frazemalarni shakllantirishda faol ekanligini taʼkidlaydi²⁴. Taʼkidlash lozimki, mazkur tadqiqotlarda somatik leksemalarning frazemalarni shakllantirishdagi oʻrni va xususiyatini ilmiy tahlil qilishga emas, balki til materiallarini qayd qilishga koʻproq eʼtibor qaratilgan. Tilimizdagi **qoʻl, oyoq, yuz, bet, quloq, koʻz** kabi soʻzlar inson tana aʼzolarining birini ifodalashi bilan somatik leksemalar sanaladi.

²¹ Жуков В.П. Семантика фразеологических оборотов. - М.: Наука, 1978. - С. 91-102.

²² Виноградов В.В. Избранные труды. Исследования по русской грамматике. - М.: Наука, 1977. - 312 с.

²³ Раҳматуллаев Ш. Лексема ва фразема маъносини компонент таҳлилининг баъзи натижалари // Ўзбек тили ва адабиёти. - 1986. -№ 3. - Б.16-21.

²⁴ Исаев А. Соматические фразеологизмы узбекского языка: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. - Ташкент, 1977. - 22 с.

Ammo shu soʻzlar ishtirokida shakllangan **koʻzini shamgʻalat qilib, koʻz ochib yumuncha, boshini qovushtirmoq, tilini biriktirmoq** kabi frazemalar insonning tana aʼzolarini ifoda etmaydi. Shu bois ularni somatik frazemalar deyish izohtalabga oʻxshaydi.

Frazemalar insonning hayoti, turmush tarzi, faoliyati, jismoniy holatini ifodalash zaruriyati asnosida yaratilganligi sababli ham, ularning tarkibida ot soʻz turkumiga oid soʻzlarning ishtiroki oʻta faolligi bilan ajralib turadi.

Frazemalar inson faoliyati va harakatini ifodalagani uchun ham, ular tarkibida feʼl soʻz turkumiga oid leksemalar koʻpchilikni tashkil etadi. Shuningdek, feʼl leksemalar frazemalarning leksik(grammatik tabiatini belgilaydi.

Umuman, frazemalar alohida shaklga ega boʻlgan, muayyan komponentlardan tashkil topgan, nutqda boshqa gap boʻlaklari bilan munosabatga kirishadigan, grammatik koʻrsatkichga va grammatik shaklga ega boʻlgan til birligidir. Shu maʼnoda frazemalar oʻz shakliga va paradigmatic shaklga ega boʻladi. Shakli va tarkibiy tuzilishini tashkil etadigan komponentlar tarkibi frazemaning oʻz shakli hisoblanadi. Frazemalarning shakli uning moddiy asosini tashkil etadi. Mazkur tadqiqot frazemalarning oʻz shaklini, uning xususiyatlarini, shaklini va maʼnosini tashkil etgan komponent tarkibini ilmiy tadqiq etishga bagʻishlangan.

1.2-§.Frazeologik birliklarning lingvomadaniy tahlil etishning zarurati

Jahon va oʻzbek tilshunosligida til birliklarini lingvopragmatik, lingvokognitiv, antropotsentrik paradigma kabi yangi ilmiy konsepsiyalar asosida tadqiq etish ustunlik qilmoqda. Til birliklarining yondosh hodisalar bilan munosabati asosida tahlil etishning zamonaviy talqin va bayonlari yuzaga kelmoqda. Bu zamonaviy yoʻnalish va konsepsiyalar asosidagi tadqiqotlar tilning nafaqat kommunikativ, balki akkumlyativ funksiyalarini ham namoyon etish imkoniyatini yaratadi. Frazeologik birliklar va turgʻun birikmalarning oʻzaro semantik hamda sintaktik munosabati, farqli jihatlari tadqiqi dolzarb hisoblanadi.

Hozirgi zamon lingvistikasida til va madaniyatning o‘zaro munosabati masalasi, konsept tushunchasi va uning bag‘rida lingvomadaniy tahlilning metod va usullari tadqiqi amalga oshirilmoqda. Tilshunoslikda til birliklarini lingvopragmatik, lingvokognitiv, antropotsentrik pradigma kabi yangi ilmiy konsepsiyalar asosida tadqiq etish ustunlik qilmoqda. Til va madaniyat munosabatini olamning lisoniy manzarasi nuqtai nazaridan o‘rganish, milliy mentallikni anglash masalalarini tahlil qilish ham tilshunoslik uchun nazariy va amaliy ahamiyat kasb etadi²⁵.

Til birliklarining lingvokulturologik tadqiqi jarayonida va natijasida ularning mohiyati to‘laroq ochiladi, amaliy ahamiyati oshib boradi. “Frazeologik birliklar u yoki bu xalqning ma’naviy qadriyatlarini, milliy tafakkuri, hayot tarzi hamda urf-odatlarini namoyon etadigan til hodisasidir”²⁶. O‘zbek tilining o‘ziga xos xususiyatlari, shevalari, tarixiy taraqqiyoti, uning istiqboli bilan bog‘liq muammolarni aynan lingvokulturologik nuqtai nazardan tadqiq etish tilimizning jahon tillari orasidagi munosib o‘rnini belgilashda o‘ziga hos mohiyat kasb etadi.

Tilshunoslikda inson faoliyatini o‘rganishga yo‘naltirilgan antropotsentrik tadqiqotlar yuzaga kelmoqda. Modomiki, frazeologik birliklar inson faoliyati bilan bog‘liq narsa-hodisa va tushunchalarni ifodalar ekan, shunday hodisalarni emotsional-ekspressiv, obrazli ifodalash ehtiyoji asosida shakllanar ekan, ularni til va madaniyat munosabatida tadqiq etish yanada dolzarblik kasb etadi. Mazkur maqoladagi til materiallari o‘zbek milliy- madaniy dunyoqarashining frazeologik sathdagi aspektlarini tahlil va tavsif etishga yo‘naltirilgan. Til u yoki bu millat madaniyatining elementi, qismi, fakti, omili, shakli, manbasi, saqlovchisi, xotirasi, translyatori, mavjudlik sharti hisoblanadi. Lingvomadaniyatshunoslik integrativ mustaqil fan sohasi sifatida olamning lisoniy manzarasi va til shaxsining milliy o‘ziga xos xususiyatlarini ifodalaydi hamda yuzaga chiqaradi. Tilshunos V.A.Maslova lisoniy madaniyatshunoslikning predmetini: 1) noekvivalent leksika va lakunalar; 2) mifologik lisoniy birliklar; 3) til paremiologik fondi; 4) til

²⁵ Маматов А. Фраzeологизмларнинг антропоцентриқ лингвомаданий тадқиқи. –Жиззах. Ўзбек фразеологияси ва фразеографияси масалалари. -, 2019 йил, 65-бет.

²⁶ Маматов А. Ўзбек тили фразеологияси (ўқув қўлланма). Тошкент, «Наврўз» нашриёти, 2019. 11-бет.

frazeologik fondi; 5) etalon, stereotip, simvollar; 6) til metafora va obrazlari; 7) turli tillar uslubiy tarzi; 8) nutqiy xulq; 9) nutqiy etiket maydoni”²⁷ kabi turlarga ajratib yanada aniqlashtiradi. Frazeologizmlar millatning mahsuli sifatida milliy madaniy manzarani kognitiv pragmatik aspektlarda bayon etadi. Lisoniy konsept va uning lingvomadaniy aspektlari esa madaniy-lisoniy aloqalarning ko‘p qirrali jihatlarini ifoda etadi.

Jahon va o‘zbek tilshunosligida frazeologik birliklarning milliy madaniy o‘ziga xos xususiyatlariga hamda til va madaniyatning o‘zaro munosabatlariga oid ilmiy va amaliy tadqiqotlar yaratilgan. Ta’kidlash lozimki, frazeologizmlarning lisoniy madaniyatshunoslik doirasida o‘rganish natijalari tahlili asosida lingvomadaniyatshunoslikning integrativ mustaqil fan sohasi ekanligi e’tirof etiladi. Tilshunoslik tarixida til va madaniyatning o‘zaro munosabati birinchidan: til madaniyatning oddiy in’ikosi, ikkinchidan: tilni madaniyat, falsafa va psixologiyaning negizi, ya’ni tilning madaniyatga ta’sirini birlamchi deb hisoblaydigan hamda uchinchidan: til – biz ajdodlarimizdan meros qilib olgan madaniyatning tarkibiy qismi, til – biz uning yordamida madaniyatni o‘zlashtirishimizdagi asosiy vosita va nihoyat til – ruhimiz voqeligi kabi uch yondashuv e’tirof etiladi.

Bunda lingvistika va madaniyatshunoslik paradigmalari kesishmasida paydo bo‘lgan lisoniy madaniyatshunoslik fanining mohiyati til, mentalitet va madaniyat o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar tabiatini ochib berish hisoblanadi. Olamning lisoniy manzarasini hosil qiluvchi verballashgan ruhoni va moddiy madaniyat tadqiqi lisoniy madaniyatshunoslikning predmeti hisoblanadi. Lingvokulturologiya – bu lingvistika va madaniyatshunoslik kesishmasida paydo bo‘lgan va tilda aks etgan, mustahkamlangan xalq madaniyatlari ko‘rinishlarini tadqiq qiluvchi fandır. Lisoniy madaniyatshunoslik etnolingvistikaning bir tarmog‘i emas, balki lingvistika va madaniyatshunoslikning o‘zaro kesishma nuqtasida paydo bo‘lgan majmuaviy ilmiy mustaqil fan sohasi bo‘lib, til + inson + madaniyat fenomenlarining o‘zaro munosabatlarini o‘rganadi, ya’ni tildagi

²⁷ Маслова В. А. Лингвокультурология. Учебное пособие. М.: 2001. 37 с.

madaniy omil va insondagi lison omillariga yoʻnalgan, madaniyat til prizmasi orqali tavsiflanadi, yaʼni til madaniyatni fiksatsiyalovchi va namoyon etuvchi vosita sifatida oʻrganiladi. Tilshunoslar lisoniy madaniyatshunoslikning predmeti sifatida “til va madaniyatning oʻzaro taʼsir usullari va sinxron harakatdagi vositalarni tadqiq qilish va tavsiflash”²⁸dir deb eʼtirof etadi. Til milliy ong, milliy tafakkur, milliy madaniyat, milliy maʼnaviyat, milliy mentalitet, milliy xarakter kabi tushunchalarning negizini tashkil etadi, tilsiz ularning mohiyati barqaror boʻla olmasligini ochib berish ham lingvomadaniyatshunoslik fanning asosiy maqsadidir.

Olam lisoniy manzarasi va til shaxsining milliy oʻziga xos xususiyatlari olam manzarasi «kishining ongiga bogʻlanmagan real yoki ehtimoliy voqelikga nisbatan subyektning fikri va bilimlar majmui» boʻlsa, olamning lisoniy manzarasi bizni oʻrab turgan olamdagi moddiy va nomoddiy obyektlarning til vositasida moddiylashib va badiiy tavsiflanib, yaxlit gavdalangan shakli ekanligi anglashiladi. Lisoniy madaniyatshunoslik lisoniy konseptlar shakllanishida madaniyat, madaniy mazmunning birikishi, madaniy maʼno tavsifi hamda tadqiqot usullari bilan shugʻullanishi lozim. Olam lisoniy manzarasi borliqdagi predmet va hodisalarning til vositalari bilan milliy-madaniy qayta inʼikos etilgan lisonidagi yaxlit tasviridir. Tilning milliy madaniyat bilan aloqasini oʻrganuvchi lingvokulturologiya sohasida samarali ishlar olib borilishiga qaramay, etnosning moddiy-maʼnaviy tamaddunida aks etgan milliy ong, tarixiy tajriba, dunyoqarash, tafakkur, milliy mental xoslanishni namoyon etuvchi frazeologik birliklarning lingvokulturologik tadqiqi doirasida izlanishlar yetarli darajada amalga oshirilmadi. Zotan, har qanday milliy tilning leksiko-frazeologik qatlami diaxron va sinxron jihatdan etnomadaniy aspektida tavsiflanmas ekan, uning milliy til bilan munosabatlari haqida batafsil fikr bildirib boʻlmaydi.

Frazeologik birliklar asrlar davomida shakllanib, xalq tarixini, madaniyatini, turmush tarzini belgilab beruvchi omillardan biri boʻlib kelgan va bu

²⁸ Телия В.Н. Русская фразеология: семантико-прагматический и лингвокультурологический аспекты. М.:2009.-218 с.

omillarning semantik tabiatini, boshqa tillarda muqobili uchramaydigan mental koʻrinish va shakllarini lingvokulturologik tamoyillar asosida ilmiy tadqiq etish hozirgi zamon tilshunosligining dolzarb masalasidir. Til mohiyatini olamning lisoniy manzarasi nuqtai nazaridan tadqiq etish, til va madaniyat munosabati, milliy mentallikni anglash aynan til mohiyatini, uning kommunikativ vazifasini chuqur va ilmiy oʻrganish ham muhimdir.

Frazeologizmlar milliy-madaniy xususiyatlarining ichki va tashqi belgilari kundalik-empirik, tarixiy va ruhiy tajribasini aks ettiruvchi frazeologizmlar voqelikni obrazli tasavvur etish asosida tilda paydo boʻlishini loʻnda va obrazli shaklda ifodalaydi. Frazeologik birliklarning madaniy komponentlari ularning obrazli asosi bilan bogʻlanmaydigan hamda obrazli asosi bilan metaforik uzayish hisobiga bogʻlanadigan denotativ-signifikativ mazmunli madaniy komponentlar guruhlariga ajratib oʻrganiladi. Shuningdek, frazeologik maʼno sathida ham ichki shakl sathida qoʻllanadigan madaniy komponentlar obrazli asosi: ichini mushuk tatalamoq, yerning tagida ilon qimirlasa bilmoq; etnosotsium tajribasining oʻziga xos fragmenti bir qarich, chilla suvi; etnosotsiumning kundalik hayot tarzi bilan bogʻlangan soʻz realiyaning mavjudligi: doʻppisi yarimta, alifni kaltak deyolmaslik; asosidagi madaniy konsept: lafzda turmoq, nomusi bukilmoq kabilarni madaniy markerligining lingvistik manbalari sifatida belgilash mumkin. Shuningdek, frazeologizmlar madaniy komponentlarni madaniyat ijtimoiy-psixologik, tamaddun va faoliyat nuqtai nazaridan ajratib tahlil etish maqsadga muvofiq. Frazelozizmlarning kognitiv va pragmatik aspektlariga alohida eʼtibor qaratilganligini eʼtirof etish lozim. Ularning kognitiv va pragmatik imkoniyatlarini namoyon etish uchun antropotsentirik tadqiqolar olib borish zarur. Konsept borliqdagi hodisa va obyektlarning qanday tuzilganligi haqidagi tafakkur asosida yaratilgan tushunchani ifodalovchi fenomendir. Konseptlarning milliy oʻziga xos xususiyati muhimdir. Konsept tafakkur jarayonida bir turdagi bir qancha predmetlar oʻrnini bosuvchi fikriy hosila, konseptlarning individual-psixik xususiyatlaridan koʻra ijtimoiy mazmunini ifoda etadi.

O‘zbek etnosida “oila” makrokonseptining yadrosini ota-ona va bolalar, yadro markazini farzandlar mikrokonsepti, yaqin periferiyani qarindoshlar o‘zbek xalqining milliy madaniy dunyoqarashi “bolalar – ota-ona hayotining mazmuni” madaniy tuzilmasi konseptuallashuvi paremiologik materiallar misolida tahlil qilinganligi e’tibor qaratamiz: bolali uy – bozor, bolasiz uy – mozor; bolasi ko‘p bo‘lar boy, bolasi yo‘q - quruq soy; bolang yomon bo‘lsa ham, omon bo‘lsin kabi maqollar o‘zbek etnosida farzand ijtimoiy kategoriyasi muhim ahamiyat kasb etishi yaqqol namoyon etgan. Ayg‘ir qanday bo‘lsa, ot shunday; olmaning ostiga olma tushadi; bog‘ing bo‘lsa qo‘ra qil, o‘g‘ling bo‘lsa mulla qil; bola tuqqanniki emas, tarbiyalaganniki; qush uyasida ko‘rganini qiladi; daraxtga ko‘ra - mevasi, ota-onasiga ko‘ra – bolasi; ona – daraxt, bola –meva kabi maqol tipidagi oilaning eng muhim funksiyalaridan biri farzand tarbiyasi ekanligi, bu etnomadaniy qadriyatlar ekanligini, bunda o‘zbek milliy madaniy dunyoqarashining frazeologik sathda namoyon etishi ta’kidlanadi.

Insonning ruhiy, intellektual va emotsional olamini tavsiflovchi konseptlar uning tashqi va ichki olami qalb, jon, vijdon konseptlari asosida tahlil etiladi va bu tushunchalarning konseptuallashuvini: ranglar: dili qora – tili qora; ko‘ngilning olasi – xudoning balosi; musoffolik: ko‘ngli toza; dili pokning ishi – pok; makon: yo‘l uzoq, ko‘ngil yaqin; ko‘ngil torligi – xorlik; geometrik figura: dili to‘g‘rining yo‘li – to‘g‘ri; dili qing‘irning tili – qing‘ir; qushlar: ko‘ngil qanoti osmondan katta; bino-inshoot: g‘aribning ko‘ngli – tangrining uyi; ming Makkadan bir ko‘ngil imorat yaxshi; artefakt: qiz ko‘ngli qizigan tandir; jarohat: qozon qorasi ketar, dil yarasi ketmas; ko‘ngilning qolishi, shishaning sinishi; tabiat hodisasi: ochiqning ko‘ngli – yorug‘, oyog‘ida xon chorig‘; inson qalbi quyoshdan yorug‘; o‘simliklar: inson joni – toshdan qattiq, ko‘ngli guldan nozik kabi assotsiativ – obrazli metodlar asosida namoyon bo‘ladi.

Emotsional konseptlar emotsiya subyektning holatini va uning obyektga munosabati, emotsiyalarning ijobiy va salbiy belgilari asosida talqin etiladi. Emotsiyada ijobiy va salbiy qutblar jumladan, qizg‘inlik va keskinlikni yumshatish, hayojon va tushkunlik kabi qutblar tavsiflanadi. Shuningdek,

keskinlik, hayojon va ularning zidlari differensiyalanadi. Hayajonli quvonch - tinch quvonch - qizg'in quvonch; keskin qayg'u - to'lib toshgan qayg'ular-hayajonli qayg'u va tinch qayg'u (melanxoliya) va boshqalar. Emotsional jarayonlarni bilish jarayonlariga qarama-qarshi qo'ymasdan bo'lmaydi. Inson emotsiyalari individning konkret hayoti va faoliyati komponentlariga bog'li ravishda o'zida emotsional va intellektual, kognitsiya jarayonlari yaxlitligini namoyon qiladi. Tahlillar inson ijobiy emotsiyasidan ko'ra salbiy emotsiya miqdoriy ko'p ekanligini ko'rsatadi. Salbiy emotsiyalarga g'azab, qayg'u, qo'rquv va uyat guruhi kirtilsa, ijobiy emotsiyalar guruhiga quvokonnotatsiyasini tasvirlovchi, tarkibida qayg'u leksemasini saqlovchi devorni nam yiqitar, odamni – g'am; issiq cho'pni quritar, qayg'u erni qaritar; zang temirni kemirar, g'am-odamni; qayg'u – umr egovi; yuragi to'lganning yig'isi ko'p kabi proverbial frazeologizmlar tashkil etadi. Turg'un birikmalar Oq uy, Oq saroy, Nikoh uyi, o'qituvchilar uyi; fotosuratlar uyi; bolalar ijodiyot uyi; ofitserlar uyi; matbuot uyi; madaniyat uyi; dam olish uylari; nashriyot – matbaa ijodiy uyi, Bolsyur ijodiyoti uyi; Xushvaqtboy uyi, Sibeliy uy-muzeyi, Avaz O'tar uy-muzeyi, qariyalar uyi, mehribonlik uyi, bolalar uyi, mebellar uyi, O'zbek-Xitoy savdo uyi kabilar frazeologik sathdagi birliklar sifatida o'rganilishi lozim.

Xulosa shuki, xalqlarning milliy o'zligini anglashi, milliy ong va tafakkurdagi o'zgarishlar va uning tildagi in'ikosi konsept mohiyatini tushunish orqali o'zbek tiliga xos olamning lisoniy manzarasini yanada yaqqol tasavvur qilish imkoniyatini yaratadi. Frazeologik birliklarning milliy-madaniy xususiyatlari lisoniy, etimologik, kognitiv-semantik va kognitiv-pragmatik tahlili, konseptuallashuvi frazeologik birliklarda shakllanish va kognitsiya jarayonlarini ochib berishga imkon beradi. O'zbek milliy-madaniy dunyoqarashining frazeologik sathdagi chuqur ilmiy tahlili frazeologik birliklarning semantik-funksional, grammatik xususiyatlarini yanada faollashtirish, xalqimizning iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, madaniy-ma'naviy hayoti, etnik kelib chiqishi kabi jarayonlarni batafsil o'rganish imkonini beradi va ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

O‘zbek tiliga xos olamning lisoniy manzarasini tasavvur qilish, frazeologik birliklarning milliy-madaniy xususiyatlarini lisoniy, etimologik, kognitiv-semantik va kognitiv-pragmatik o‘rganish, inson moddiy va botiniy olam konseptlarining frazeologik birliklarda shakllanish va kognitsiya jarayonlarini ochib berish, frazeologik birliklarning milliy-madaniy belgilari, ichki va tashqi xususiyatlari namoyon bo‘lishiga, lisoniy konseptlar tadqiqi olamning milliy lisoniy modelini yaratishga imkon beradi. O‘zbek tili frazeologik birliklarning semantik-funksional, grammatik xususiyatlarini aniqlash, orfografik tamoyillarini qayta ko‘rib chiqish va ilmiy tadqiq etish uchun ilmiy nazariy ma’lumotlar beradi. O‘zbek tilini o‘qitish bo‘yicha yaratilajak darslik va qo‘llanmalar, hozirgi o‘quv hamda izohli lug‘atlarning mukamallashuvi uchun xizmat qiladi.

1.3-§. Frazeologizmlarning milliy-madaniy semantikasi

Lingvokulturologiyani o‘rganish markazida frazeologik birliklar ham turadi. Mashhur rus tilshunosi B.A. Larin shunday deb yozgan edi: “Frazeologizmlar doimo bilvosita odamlarning qarashlarini, ijtimoiy tuzumini, o‘z davrining mafkurasini aks ettiradi. qanday aks ettiradi tong nuri shudring tomchisida aks etadi”²⁹. “Tilning frazeologik fondi – xalq madaniyati va mentaliteti haqidagi eng qimmatli ma’lumot manbai, ularning ikkalasida odamlarning afsonalar, urf-odatlar, marosimlar haqidagi tasavvurlari, marosimlar, odatlar, axloq, xulq-atvor va boshqalar ifodalaydi”³⁰.

V.N. Teliya Rossiyada va xorijda Moskva nomi bilan tanilgan frazeologik birliklarni lingvokulturologik tahlil qilish maktabi lingvistik mavjudotlarni jonli tilda so‘zlovchining aks ettirish pozitsiyasidan o‘rganadi, ya’ni bu bevosita madaniy semantikaga ega bo‘lishga qarashdir.

Teliya va talabalar frazeologik birliklarning madaniy va etnik konnotativ semantikasining tavsifi ishida madaniyat va til kontseptsiyasi sohasi o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir muammosini egallaydi. Tadqiqotchilar frazeologik belgilarning

²⁹ Bu haqda qarang: Маслова, В.А. Лингвокультуроология: Учеб. пособие для студ. высш. учеб. заведений / В.А. Маслова. – М.: Издательский центр «Академия», 2001. – 208 с.

³⁰ Маслова, В.А. Ko‘rsatilgan asar. . – 209 с.

madaniyat kontseptsiyasi ta'sirida qanday shakllanishini aniqlaydilar. Ular markaziy gipotezani ilgari surdilar, frazeologik ma'no intersemiotik natija ekanligini transpozitsiyalar. "Intersemiotik transpozitsiya" tushunchasi kiritildi.

Frazeologiyadagi lingvokulturologik yo'nalishning asosiy maqsadi "til"ni o'rganishni amalga oshirish yo'llari va vositalarini aniqlashdan iborat. Frazeologizm tilshunoslikning obyektidir.

Til, madaniyat va milliy mentalitetning aloqadorligi, bir tomondan, va tilshunoslikning ushbu fundamental tizimlarning o'zaro ta'sir mexanizmlarini aniqlashga qaratilgan progressiv harakati, ikkinchi tomondan, tilshunoslik va madaniyatshunoslikni yangi fanga birlashtirishda ilmiy fikrning obyektivligini tasdiqlaydi. Frazeologiyada lingvokulturologik yondashuv madaniyat o'z qadriyatini o'zida mujassamlashtirgan pozitsiyasiga asoslanadi.

Hozirgi zamon lingvistikasida til va madaniyatning o'zaro munosabati masalasi, konsept tushunchasi va uning bag'rida lingvomadaniy tahlilning metod va usullari tadqiqi amalga oshirilmoqda. Tilshunoslikda til birliklarini lingvopragmatik, lingvokognitiv, antropotsentrik paradigma kabi yangi ilmiy konsepsiyalar asosida tadqiq etish ustunlik qilmoqda. Til va madaniyat munosabatini olamning lisoniy manzarasi nuqtai nazaridan o'rganish, milliy mentalitetni anglash masalalarini tahlil qilish ham tilshunoslik uchun nazariy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

Til birliklarining lingvokulturologik tadqiqi jarayonida va natijasida ularning mohiyati to'laroq ochiladi, amaliy ahamiyati oshib boradi. "Frazeologik birliklar u yoki bu xalqning ma'naviy qadriyatlari, milliy tafakkuri, hayot tarzi hamda urf-odatlarini namoyon etadigan til hodisasidir"³¹.

Frazeologik birliklarning tabiati til egasining bilimlari, hayotiy tajribasi va mazkur tilda so'zlashuvchi xalqning madaniy-tarixiy an'analari bilan chambarchas bog'liqdir. Frazeologik birliklarning semantikasi inson va uning faoliyatini tavsiflashga qaratiladi.

³¹ O'zbek tilining o'ziga xos xususiyatlari, shevalari, tarixi

Frazeologik birliklar har doim subyektga qaratilgan bo‘ladi. ya’ni ular olamni tasvirlash uchungina emas, balki uni talqin qilish, baholash va unga subyektiv munosabat bildirish uchun yuzaga keladi. Frazeologizm va metaforalar aynan mana shu jihati bilan boshqa atov birliklaridan ajralib turadi.

Zoofrazeologizmlar tarkibida uy hayvonlari: it, mushuk, qo‘y, ot, ho‘kiz, sigir, echki, tuya, tovuq; yovvoyi hayvonlar: tulki, quyon, yo‘lbars, ayiq, bo‘ri, sher, to‘ng‘iz; sudralib yuruvchilar: ilon, toshbaqa; kemiruvchilar: sichqon, olmaxon; qushlar: chumchuq, qarg‘a, bulbul, bedana, mayna, g‘oz, o‘rdak, tovus; suvda yashovchilar: baliq, qurbaqa; hasharotlar: pashsha, chivin, bit, burga, ari va h.k. zoonimlar ishtirok etadi. Turkiy tillardagi “zookomponentli frazeologik birliklar jismoniy sifat, tashqi ko‘rinish, xarakter belgilari, intellekt, inson faoliyati kabilarni aks ettiradi”. Ot, tuya, qo‘y, mushuk, it, sigir kabi hayvonlarning xonakilashtirilishi turkiy xalqlar leksikasida ijobiy ma’no belgilarini o‘zida aks ettiruvchi frazeologik birliklarning ifoda va mazmun jihatidan boyishida yanada muhim bir omil bo‘ldi. Turk va o‘zbek tillaridagi zoonim komponentli iboralarning semantik guruhleri Turk va o‘zbek tillaridagi zoonim komponentli iboralarni semantik jihatdan uch guruhga ajratish mumkin. Birinchi guruhga shakl va mazmun jihatidan to‘liq muqobil iboralar kiradi. Mazkur guruhdagi frazeologik birliklar turk va o‘zbek lingvomadaniyatida bir xil vaziyatlarda qo‘llaniladi. Bunday iboralarda milliy kolorit farqlari kuzatilmagani uchun ham ularni tarjima qilish qiyinchilik tug‘dirmaydi. Zero, ularning aksariyati ayni manbadan o‘sib chiqqan bo‘ladi. Bu o‘rinda S.Vlaxov va S.Florinlar ta’kidlaganidek, ikki qiyoslanilayotgan tildagi frazeologizmlarda to‘liq ekvivalentlik namoyon bo‘ladi

Xulosa qilib aytganda, har bir til o‘z doirasidagi so‘zlarni o‘rnida qo‘llash, ma’no kengayish usullarini o‘rganish, o‘ziga xos bo‘lgan xususiyatlarini dunyoning tildagi ko‘rinishi orqali aks ettirishda muhim rol o‘ynaydi. Inson qiyofasi va xarakterini ifodalash har bir tilda ko‘rilganda, shu til vakillarining dunyoqarashi, mentalitetidan kelib chiqqan holda beriladi. Shuningdek, tilning qanchalik keng maydonga egaligidan darak beradi. Mazkur tillar tarkibidagi zoonimlarning “xulq-atvori” tahlili bizga quyidagilarni aytishga imkon beradi:

Ko'rib chiqilgan zooleksemalar har ikkala tilning matnlarida faol ishlatiladi va turli xil insoniy illatlarning timsoli sifatida xizmat qiladi; Ikkala tilning zoonimlari odamning fe'l-atvorini, holatini, xatti-harakatlarini va xulq-atvorini salbiy ham ijobiy baholash uchun ishlatiladi, bu hayvonot dunyosi vakili idrokining o'ziga xosligi bilan izohlanadi, bunda xuddi shu hayvon o'xshash belgilar bilan tavsiflanadi.

I bobga doir xulosalar

O'zbek frazeologiya maktabiga taniqli tilshunos Sh.Raxmatullayev asos solgan bo'lib, u tobora takomillashib, rivojlanib bormoqda. Mustaqillik yillarida o'zbek tilshunosligi frazeologizmlarning struktur-grammatik, semantik-uslubiy jihatdan o'rganish sohasida muayyan yutuqlarga erishdik. Bir qator yangi monografiyalar, risolalar, o'quv qo'llanmalari, ilmiy maqolalar, frazeologik lug'atlar yaratildi, bir necha nomzodlik dissertatsiyalar hamda doktorlik dissertatsiyalar himoya qilindi.

So'nggi yillarda frazeologizmlarni lingvokulturologik jihatdan o'rganish ko'payib bormoqda. Ayniqsa, bu tendensiyalar boshqa tillar, xususan qardosh bo'lmagan tillar bilan qiyosan o'rganishga asoslangan.

Frazeologizmlarda ikki va undan ortiq leksema o'z leksik ma'no mustaqilligini yo'qotgan holda bir umumiy ma'no markaziga bo'ysunadi. Frazemadan anglashiladigan ma'no uning tarkibidagi leksemalardan anglashiladigan oddiy yig'indisi bo'lmay, umumlashma, ustama ma'no ayni vaqtda ko'chma ma'no sifatida gavdalanadi.

Frazeologik ma'noning o'ziga xosligi frazemalar o'rtasidagi ma'noviy munosabatlarning tabiatini belgilab beradi. Frazemalarning leksemalar bilan kechadigan sinonimik, antonimik, daraja munosabatlari frazemalararo munoasabatlardan farq qiladi. Bunda obrazga egalik kabilar ahamiyatlidir.

Frazeologizmlar dunyo obyektiv borliq va jamiyat haqida madaniy ma'lumot tashuvchi lingvomadaniy birlik hisoblanadi.

II Bob **ZOOFRAZEOLOGIZMLARNING TASNIFI**

2.1-§. Uy hayvon nomlari bilan bog‘liq zoofrazeologizmlar

Ma'lumki frazalogiya tilning eng jonli qismi bo'lib umumiste'moldagi tilning eng katta tarkibiy qismi sifatida o'rganish, uni leksik-semantik aloqa nuqtai nazaridan izohlash natijasida bu tUSDagi ya'ni zoofrazeologiyalarni orasidagi semantik aloqalarni o'rganish va bu aloqalarning chegarasini aniqlash bilan bir qatorda, bunday zoonimlar kognitiv tilshunoslik nuqtai nazaridan, tahlil qilish ham alohida ahamiyat kasb etadi.

Frazeologizmlarda tilning milliy xususiyati, millatning tafakkuri, uning tarixi va madaniyati, bugungi va ertangi kuni rasm-rusumi, urf-odatlar va shular bilan birgalikda bu xalqning zoonimlarga bo'lgan munosabati ham aks etadi. Tafakkur va ong jarayonlari hamma insonlarda bir xil kechadi, lekin har bir millat muayyan geografik va tarixiy sharoitda yashaydi. Shu sababli ham uning obrazli mulohaza, fikrlash tarzi o'ziga xosdir³².

Ayni bir xalqning ijtimoiy hayoti va turmush tarzi, madaniy saviyasini o'rganishda shu xalq tilidagi lug'aviy birliklarni mazkur xalq tilining lug'at qatlamini, xususan, frazeologizmlarni chuqur o'rganish katta ahamiyatga ega.

Frazeologik lug'atda umumxalq iboralari, shularning umumiy variantlari o'zbek badiiy adabiyotlarini sahifalarida ishlatilishi kuzatib to'plangan materiallar asosida tuzilgan, hamda ularning nutqiy izohlari ham keltirilgan. Ushbu lug'atdan foydalanib unda qo'llangan hayvon nomlari bilan bog'liq iboralarni to'plashga harakat qildik.

Hayvonlar obrazi asosida shakllangan iboralar o'zbek tilida ko'p uchraydi (boshqa tillarda ham), hayvonlarning u yoki bu xususiyatlarini timsollashtirish asosida shakllangan. Hayvonlarning yurish-turishi o'ziga xos xususiyatlari va ma'lum xalqning hayotida, ijtimoiy xo'jaligida tutgan o'rni uning milliy folkloridagi obrazlar hamda shu xalqning urf-odat psixologiyasida qanday ahamiyatga ega ekanligi bilan belgilanadi.

³² Tursunov, Muhiddinov "Frazeologik birliklarning asosiy ma'no turlari" Toshkent-1995

Masalan, o‘zbek iboralarida gorilla, panda, pigmat, zebra kabi hayvonlarning iboraviy ifodasini izlash befoydadir. Chunki mazkur so‘zlarni ifodalab kelgan hayvonlar bizning xalqimiz hayoti, madaniyati va turmush tarzida hech qanday ahamiyatga ega emas. Shuning uchun o‘zbek tilida qator frazeologizmlar shu hududda yashovchi hayvon nomlari bilan bog‘liq.

Hayvonlarning xalq tomonidan idrok etilgan umumiy xislatlarini timsollashtirish asosida o‘zbek tilida ham salbiy ham ijobiy ma’noli frazeologizmlar shakllangan. Chunki hayvonlar obrazi inson tafakkurida aksariyat hollarda salbiylik ma’no kasb etadi. Shuning uchun so‘kish-qarg‘ishni ifodalovchi so‘z va so‘z birikmalari tarkibida hayvonga oid so‘zlar ko‘p uchraydi. Masalan, kishi o‘zining salbiy munosabatini bildirishda "hayvon" deya xitob qiladi. Ichki forma, ya’ni obraz ma’noning dinamik komponenti bo‘lib bu birinchi o‘rinda beriladi va ikkilamchi ma’no yuzaga keladi. Hayvon obrazi ham frazeologizmlar tarkibida muhim dinamik komponenti bo‘lib frazeologik ma’noni shakllantiradi. Masalan "It" sodiqlik, vafodorlik timsoli sifatida "Itday vafodor bo‘lmoq" frazeologizmlarning shakllanishiga sabab bo‘lgan. "Itning kunini ko‘rmoq, "Itning kunini solmoq" frazeologizmlari esa itning hayoti tarzini inson hayoti tarzini qiyoslash asosida paydo bolgan. "It dan bir suyak qarz bo‘lib yashamoq" frazeologizmi esa o‘ta kambag‘al ahvol obrazli ifodalash asosida shakllangan. "It hurar karvon o‘tar" frazeologizmi ham itning salbiy bo‘lar-bo‘lmasga xurishi asosida yuzaga kelgan. Bundan tashqari "Ichini it tirnadi", "It quvgan saqovday", "It mushuk bo‘lmoq", "It g‘ajigan suyakday", "Oq it qora it baribir itligini qiladi", "It yotish mirza turish", "Itdek g‘ingshimoq", va boshqalarda turli ma’no ifodalaydi. Bu o‘rinda alohida aytib o‘tish kerakki tildagi har bir so‘z birikmasi shu tildagi mustaqil lug‘aviy birikmalarning umumiy miqdoridan kelib chiqadi.

Shuning uchun ham har bir mavzu qatoridan mustaqil lug‘aviy birlik va frazeologizm alohida mavzu sifatida olinsa til birliklarini lug‘aviy imkoniyatlari yanada kengayadi³³.

³³ Rajabova.D "Zoofrazeologizmlar orasidagi semantik munosabat" Toshkent-2013

Frazeologik iboralar tarkibidagi ko'pgina hayvon nomlari odamlardagi ba'zi ijobiy va salbiy hislatlarni ifoda etish uchun xizmat qiladi. Ko'p frazeologizmlar odamlarning hayvonlar hayotini kuzatishlari natijasida paydo bo'lgan. Iboralardagi hayvon obrazlarini keng ma'noda ochish uchun, folklorga ertaklarga, maqollarga va hatto topishmoqlarni ham o'rganib kengroq xulosa chiqarishga imron beradi. Zoofrazeologizmlarni tasniflash biz hayvonlarni yasash sharoitidan kelib chiqib uy-hayvonlarini va yovvoyi hayvonlar turiga ajratishni ma'qul ko'rdik. O'zbek xalqining kundalik hayotida uy-hayvonlari muhim rol o'ynaydi. Shu nuqtai nazardan u ijobiy qahramon obrazi sifatida ko'riladi. Salbiy ma'no ifodalovchi frazeologizmlar yovvoyi yoki yirtqich hayvonlarni simvallashtirish hisobiga shakllangan.

Hayvon nomlari bilan yasaluvchi frazeologik birliklar tarkibiga kiruvchi, inson xulq atvorini ifodalovchi zoonimlar semantik markaz hisoblanadi. Shu sabab u metaforik ma'no kasb etadi va bu narsa iborani yanada obrazli qiladi. Masalan, o'zbek tilida "Tulkiday ayyor, eshakday qaysar, quyondek qo'rqoq, ayiqday ahmoq, otday yeydigan, cho'chqadek iflos, eshakday ishlamoq, ilonday chaqib oluvchi, qo'ynidagi ilon" kabi frazeologik iboralar tilning lug'aviy tarkibini o'ziga xos milliylikni aks ettiradi. Ko'pchilik hayvon nomlari bilan bog'liq bo'lgan frazeologik birliklar til manzarasida ularga bo'lgan munosabat, inson tilida ularni qanday nomlash, metaforik ko'chma ma'noni qo'llash ko'chma ma'no ustunligida ko'zga tashlanadi. Semantik jihatdan hayvonlarga yo'naltirilgan, ammo metaforik tarzda insonni nazarda tutuvchi frazeologik iboralar muhim o'ringa ega³⁴.

Uy hayvonlari bilan bog'liq bo'lgan iboralarga misollar keltiramiz. Xalq xo'jaligining boshqa sohalaridan farqli o'laroq ming yillar davomida deyarli o'zgarmay kelgan chorvachilik va bu soha bilan bog'liq leksika frazeologik birliklarda asosiy komponent sifatida o'rin olgan. Olib borgan kuzatishlarimiz shuni ko'rsatadiki, uy-hayvonlari bilan bog'liq iboralarda inson xo'jalik yuritish

³⁴ Mamatov "Frazeologizmlar shakllanishining nazariy asoslari" Toshkent-1997

chog'ida ularning yashash tarzini o'rgangan va o'z tajribalari asosida buni tafakkurida qayta yaratgan. Masalan, uydagi hayvonni zimdan kuzatgan, uy-hayvonlarining "Bir-birini hidlashi va til topishishi"ni anglagan va bu holatni insonga nisbatan qo'llagan.

Insonlar uchrashib, hayvonlar islashib topishishadi. Hozirgi odamlar ko'rishib, hayvonlar tortishib topishadi ham deyiladi.

Uy hayvonlari nomlari asosida qurilgan iboralar sirasiga birinchi navbatda "Qo'y" so'zi asosiy komponent bo'lib kelgan iboralar kiradi.

Buning boisi turkiy xalqlar qadimdan qo'yning go'sht-yog'i, terisi, juni, sutidan keng foydalanishgan.

Masalan cho'ponsiz qo'yni bo'ri yeydi-egasi bo'lmagan yurtni dushman egallashi ta'kidlangan bo'lsa, qo'yni bo'riga topshirganday xavf-xatarga tashlashni bildirgan. Qo'y-yuvoshlik va nomustaqillik ramzi belgisi bo'lgan³⁵. Bular

Qo'ymijoz bo'lmoq – sovuq qotmoq;

Qo'rasini topolmagan qo'yday – adashmang;

Qo'y mingga yetdi – xursand bo'ldi;

Qo'yday yuvosh – vazmin;

Qo'y og'zidan cho'p olmagan – o'taketgan soda, go'l;

Qo'y sutidan qilingan qatiq qanday bo'lsin – bu odamning bo'lgani shu, boshqacha bundan yaxshiroq bo'lishi mumkin emas.

Iboralarda qo'y so'zlar bilan bir qatorda qo'chqor so'zlari ham asosiy bo'lak bo'lib kelishi mumkin: Qo'chqorga shoxi yuk bo'lmaydi-kerakli toshni og'iri yo'q maqollari muqobil bo'ladi. Semizlikni qo'chqor ko'targan, Har qo'chqor oyog'idan osiladi-har kishining o'z qilmishi uchun o'zi javob berishi ta'kidlangan.

Qo'y so'zlar qatorida qo'zilar, qurbonlik shaklida ham kelgan. Qo'chqor bo'ladigan qo'zining bo'g'ziga pichoq tortilmaydi-Agar insonning peshonasiga uzoq yashash, porloq kelajak yozilgan bo'lsa, u bunga erishadi, hech narsa bunga raxna sololmaydi.

³⁵ Sh.Raxmatullayev "Frazeologik lug'at" Toshkent-1980

To'ygan qo'ziday-ehtiyoj qongan. Ba'zan qo'zi so'zi iboralarda "Qo'zichoq" ma'nosida ham kelishi mumkin: onasining qo'zichog'i, ya'ni erkatoiy farzand to'yga kelgan qurbonlikning oriq-semizligiga qaralmaydi, ya'ni "Hech qanday badal to'lanmasdan qo'lga tekkan narsaning kamchiligiga qaralmasligi kerak". Umuman qurbonlik deganda qo'y yoki qoramol tushuniladi. Ushbu iboraning muqobili quyidagicha "Hadyaga kelgan otning tishiga qaralmaydi".

O'lgan qo'y bo'ridan qo'rqmas-inson bu dunyodan o'tgandan so'ng hech narsadan qo'rqmaydi. Bunga yaqin ma'noli "O'lar ho'kiz boltadan qaytmas" matali ham keng qo'llanadi.

Iboralarda qo'y so'zi bilan bir qatorda echki, uloq (uloqcha) so'zi ham qo'llanadi. Masalan, soqol echkida ham bor iborani ikki xil tushunish mumkim:

1) Kishining mansablari hech narsani belgilamaydi, chunki ilgari yosh, lekin mansabdor bo'lgan kishilar ham soqol qo'yishgan;

2) Kishining yoshi hech narsani belgilamaydi, ya'ni keksa bo'lganlar bilan ba'zi yoshlar aqlli bo'lmasligi mumkin. Ushbu iborani aql yoshda emas boshda maqoliga mos keladi. Og'ilda uloqcha tug'lsa, yaylovda o't bitar birikmasida-agar oilada bir farzand dunyoga kelsa, albatta xudo uning risqini beradi.

Qassobga yo'g' qayg'usi, echkiga jon qayg'u, ya'ni hamma o'z manfaati uchun ovora, birovning dardi bilan boshqasining ishi yo'q. Bular qatorida quyidagilarni ham ko'rib o'tamiz.

Echki yugurgani bilan kiyik bo'lolmaydi-hammayam o'z ishini bilgani yaxshi. Echkini o'lgisi kelsa cho'pon bilan o'ynashadi, Echki qasam bo'lmang-va'dasizlik, o'zini aka echkisini tog'a demang-hushomad qilish. Tilab olgan echkimni eshak tepib o'ldirdi-yetishganda qaytarish. Toqqa tiqilgan echkiday-ilojsiz qolish. Taka bo'lsa sut bersa-hamma narsaga umid qilish. Bu kabi iboralar tarkibida echki ham salbiy ham ijobiy jihatdan qaralgan.

Umum iste'moldagi zoonimlar orasidagi gipo-giperonimik hamda turli tipdagi boshqa semantik aloqalarni o'rganish zoonimlarni frazeologik birlik tarkibidagi ishtiroki va ko'chma frazeologik ma'nolari o'rtasidagi farqni belgilab berish uchun juda muhimdir.

Ayniqsa mol, sigir, buzoq, ho‘kiz nomlari bilan bog‘liq iboralarda yaqqol namoyon. Masalan, suzag‘on sigirga tangri shox bermaydi, ya‘ni yomon niyatli kishilarga tangri yomonlik qilishga imkoniyat bermaydi.

Buzoq so‘zi ishtrokida “Ammamning buzog‘i”- lapashang, “Buzoqning yugurgani somonxonagacha-ishning oxiri, buzoqning haqi-kimningdir risqi, noma‘qul buzoqning go‘shini yebdi-bekor gapiribdi iborasi muqobil. Onasini sog‘dimmi, buzog‘ini och qo‘ydimmi-bir narsa olgan bo‘lsam, badalini to‘laganman ma‘nosida.

Mol so‘zi ba‘zan o‘z ma‘nosida, ba‘zan boylik timsolida qo‘llanilgan. Masalan, jon omon bo‘lsa, mol bitar. Mol olasi tashida, odam olasi ichida. Bu ibora qadimda ya‘ni "Qissasi Rabg‘uziyda", "Yilqi olasi tashqida, odam olasi ichida" tarzida qo‘llangan hozirgi yilqi molga o‘zgargan.

Quyidagi birliklarda: Mol egasiga o‘xshamasa harom o‘ladi, mol ketsa, molxona gullamaydi, tek turgan molga hech qanaqa vahshiy hayvon tashlanmaydi. Ushbu ibora vositasida yomonlikka qarshi qiziqqonlik qilmaslik, og‘ir vazmin bo‘lish uqtiriladi.

Ho‘kiz nomi bilan bog‘liq iboralar. Ho‘kiz yiqilishi bilan qassob ko‘payadi, ya‘ni og‘ir ish nihoyasiga yetgach, uni bajaraman degan odam ko‘payadi. Bunga ma‘nodosh quyidagi maqolni keltirishimiz mumkin. "Yov qochsa botir ko‘payadi" Bularga qo‘shimcha tarzda Ho‘kizga to‘qim urganday- ho‘kizni shoxidan ushlamoq, ho‘kiz tuqqanda-biror ishni qiyin joyidan boshlash ma‘nosida. Ho‘kizni tagidan buzoqni qidirmang-bir narsani bo‘lishi mumkin bo‘lmagan joydan qidirish, turli bahonalarni qilib bir insonni ayblamoq, ma‘nolari anglashiladi.

Kambag‘allik ham iboralarga mavzu qilib olingan. Ularda kambag‘al kishining hayotda hech omadi kelmasligi obrazli qilib beriladi. Kambag‘al ho‘kizga chiqdiyu, tuyog‘i sindi, tuyoqqa yetgandaya.

Ho‘kiz sherikchilik yo‘qoldi, ya‘ni kishilarni sherikka birlashtirib turuvchi narsa ishlab chiqarish vositalari yaroqsiz holga kelsa, unda manfaatli sherikchilik barham topadi. Ushbu iborada qo‘llangan ho‘kiz so‘zining lug‘aviy

ma'nosi "Faqat ilgarilari yer haydashda qo'llangan bichilgan buqa" bo'lib hozirda nofaol qo'llanadi.

Yana quyidagi birikmada yaxshilikka yaxshilik bo'lganda, devday ho'kizning bo'g'ziga pichoq tortilmasdi. Bunda ham qo'sh haydashda ishlatilgan ho'kiz nazarda tutilgan.

O'zbek xalqining kundalik hayotida ot juda muhim ro'l o'ynaydi. Shuning uchun ham yilqichilikka oid qator so'zlar birikmalar tilimizda keng qo'llaniladi. Otdan tushsa ham, uzanidan tushmaydi yoki otdan tushsa ham, egardan tushmaydi. Oyog'i uzangida bo'lmoq, otning qashqasiday, otni qamchilamoq, ot solmoq, yosh qulunni tergama o'sib yetgach, ot bo'lar. Ot qo'ymoq, ot bilan tuyacha, otni kallasidek yurak. Katta oxurdan yem yegan ot. Yaxshi ot keyin chopadi. Yaxshi otga bir qamcha ham yetadi. Ot izini toy bosar, ot aylanib qozig'ini topadi.

Otni badiiy adabiyotda do'st, yor obrazi sifatida qo'llanadi. Ot nomi bilan bog'liq birikmalar A.Qahhor ijodi quyidagicha ifodalanadi. "O'g'ri" hikoyasiga epigraf qilib olingan ibora "Otning o'limi-itning bayrami", "O'jar" hikoyasida epigraf "Ul tutar ot quyrug'idan", "Mayiz yemagan xotin" hikoyasida "Oldidan kelsa tishlar, ketidan kelsa tepar edi", "Uloqchi ot chopmay qolmaydi", kabi birliklarda ot dinamik komponent hosil qilgan.

O'zbek xalqi azaldan otga mehr qo'ygan shuning uchun ot bilan bog'liq iboralar ham ancha. Masalan: Yomg'irda do'sting oti, dushmanning qo'yi sotilsin, chunki yomg'ir ostida otning tanasi yaltirab, yanada ko'rkamlashadi, narx ham oshadi, qo'yning esa juni badaniga yopishib, bilinib qoladi. Otga bo'lgan e'tibor-otning yaxshisini yosh olar, maydon bo'lsa ot hozir, iborasini ko'rish mumkin. Ot ber do'stli bo'l-iborasida otning do'stlik ramzi ekanligi ta'kidlanadi.

Ot ramzi orqali kishilar orasidagi muomala munosabatlar ham aks etadi. Samimiy do'stlik, yaqinlikni buzishga harakat qilish, insonlar orasiga araz solishga urinish "Otni arpaga arazlatmoq", ya'ni bir insonni uning eng yaxshi ko'rgan narsasiga yoki hissiga qarama-qarshi qilib qo'ymoq iborasi orqali ifoda etiladi. Bu ibora bilan kelinni arazlatib qo'yuvchi qaynonalarga qarata aytilgan.

Ot mavzudagi iboralarda ot moddiy manfaatlar ham asosga olingan bo'sh to'rva bilan ot tutib bo'lmaydi, bu "Mingta siz-bizdan bitta jiz-biz yaxshi" mataligi sinonim bo'ladi.

"Somon yanchayotgan otning og'zi bog'lanmas" iborasida-moddiy ne'matlar ichida yurgan, pul ishlari bilan mashg'ul bo'lgan odam, istasa-istamasa undan foydalanishi ta'kidlansa, "Ko'p arpa yegan ot yorilib o'ladi" iborasida buning zid ma'nosi aks etadi.

Ot mavzusidagi iboralar uy hayvonlari ichida eng sermahsul qo'llanuvchi zoonim hisoblanadi. Biror kishiga hushomad qilish "Yolini qashimoq" iborasi orqali ifodalanadi.

Sharq xalqlari madaniy turmushida tuyaning o'rnini beqiyos, shu sababli bizning, xalqimiz hayotida ham tuya nomi qatnashgan bir qancha iboralarni ko'rib o'tamiz:

Ignadek narsani tuyadek qilmoq, bo'rttirib, orttirib aytish;

Tuya qilmoq, aldamoq;

Tuyani dumi yerga tekkanda;

Tuya ko'rdingmi yo'q;

Tuya go'shti yegan, uzoq muddatga kechkishi;

Tuya asosiy komponent bo'lib kelgan quyidagi frazeologik birliklarni ham ko'rib o'tamiz. Bir ishning imi-jimida bajarilishini "Na tuya yursin, na qo'ng'iroq jiringlasin" iborasi orqali ifoda etiladi. Bu iboraning yuzaga kelishida karvonda yuradigan tuya va uning bo'yniga osib qo'yiladigan qo'ng'iroq asos qilib olingan. Tuya yurib kelayotganda qo'ng'iroq jiringlaydi, to'xtaganda esa jiringlamaydi. Ma'no ko'chishi natijasida ushbu ibora "Ishni imi-jimida, yeng ichida amalga oshirishni bildiradi. Yoki "Tuya taqachiga qaraganday qaramoq iborasi", to'g'ri ko'chma ma'noda qo'llangan. Tuya hech qachon taqachiga yaxshi ko'z bilan boqmaydi, nafrat ko'zi bilan qaraydi. Ba'zi iboralar so'roq ohangida qo'llanishlari bilan yanada ta'sirchanroq ifoda etilib, xalqning tarixini, milliy holatini o'zida aks ettirishi bilan bir qatorda tilning sintaktik o'ziga xosligini namoyon etadi. "Tuyada quloq" ya'ni "Dengizdan tomchi" iborasiga asoslangan. "Tuyaday sabr etting-

u, qulog'ichalik sabr eta olmadingmi?" shaklida, yoki "Qirqiga chidab, biriga chidamading" birligiga misol bo'la oladi.

"Burgadan tuya yasamoq" ya'ni "Pashshadan fil yasamoq" iborasi bilan sinonim tarzda qo'llanadi. Ammo bu ibora pastroq qo'llanadi. Xuddi shunday iboralardan "Oq tuya ko'rdingmi? Ko'k tuya ko'rdingmi?" iborasi ham faol qo'llanuvchisi sifatida "Tuya ko'rdingmi yo'q" iborasi misolida ko'rish mumkin.

O'zbekcha iboralarda *eshak* so'zi boshqa hayvonlarga nisbatan faol qo'llanadi. Unga xos ba'zi salbiy xususiyatlar iboralarga asos qilib olingan bo'lib, ma'no ko'chish majoz yo'li bilan insondagi salbiy illatlarni qoralash uchun qo'llangan. Yana shuni ta'kidlash kerakki, iboralarda eshakni qaysar befarosat hayvonligi ta'kidlangan.

Eshak miya;

Eshakday qaysar;

Eshak tishlagan tuyoqday;

Eshakka so'z, buzilgan go'shtiga tuz ta'sir qilmaydi, iboralarida qo'llangan.

Uning kundalik turmushga qanchalik foydali ekanligi har qanday og'ir mehnatga bardoshli ekanligiga quyidagi iboralarda alohida urg'u berilgan.

Eshakday ishlamoq;

Eshakning ishi halol, o'zi harom;

Eshak qurbonlikka yaramaydi, lekin bebaho.

Ushbu iborada ham eshakning mehnati tufayli qiymatga ega ekani ta'kidlanadi. Bunday iboralar sirasiga:

Ishi bitguncha, eshagi loydan ostguncha (ko'prikdan);

Eshakka do'lana taqqanday-yarashmagan;

Burnidan eshak qurti tushmoq;

Eshagining tushuvi qiymati;

O'lma eshagim, yozga chiqamiz-sabrlilik;

Eshak o'ldiradigan sovuq;

Salla o'ragan bilan eshak mulla bo'lmaydi-ahmoq baribir ahmoq ma'nosida;

Ko‘r eshakka somon tashlamang-yaxshilikni bilmaslik.

Iboralarda obrazli ifoda vositasi bo‘lib, asosan, ko‘chma ma’noda qo‘llanadi. Masalan, "Yuk ostida eshak hangramas", ko‘chma ma’noda. "Inson mehnat bilan qanchalik band bo‘lsa, shunchalik kam gapiradi, keraksiz faoliyatlar bilan shug‘ullanishga vaqt topa olmaydi" degani bo‘ladi.

Birovni pisand qilmaslik, uni ahmoq o‘rnida ko‘rish-eshak o‘rnida ko‘rmoq iborasida o‘z ifodasini topgan.

Eshakning otga qaraganda sekin yurishi iboralarda alohida ta’kidlanadi. "Eshak suvdan qaytguncha"-ma’nosi juda uzoq vaqt demakdir.

"Xo‘tigi bor eshak uzoq yo‘lga yaramas"-bolalari tez harakat qilishga xalaqit berishi aytiladi. "Ko‘chning og‘iri eshakniki"-iborasida ham eshakning sekin yuruvchi hayvon ekanligiga urg‘u beradi.

Uy hayvonlari orasida frazeologiyada asosiy komponent bo‘luvchi it va mushuk obrazi ham beqiyos o‘rin tutadi.

It-sodiqlik, vafodorlik timsoli sifatida "Itday vafodor bo‘lmoq"- frazeologizmining shakllanishiga sabab bo‘lgan "Itning kunini ko‘rmoq", "Itning kunini solmoq"-iboralari esa itning hayoti yoki turmush tarzi og‘ir ekanini badiiylashtirish asosida paydo bo‘lgan. "It mushuk bo‘lib yashamoq" ibora esa asosan ko‘p janjallashadigan er va xotinlarga qarata aytiladi.

"It dan bir suyak qarz bo‘lib yashamoq"- frazeologiyasida o‘ta kambag‘al ahvolga tushib qolgan inson hayotiga qiyoslash asosida shakllangan.

Noloyiq kishiga nisbatan yaxshilik qilish-"Itga sariyog‘ bermoq" iborasi orqali ifodalanadi. Bundan tashqari:

Ichini it tirnadi;

It quvgan soqovday;

It g‘ajigan suyakday;

Oq it, qora it, baribir it;

It yotish, mirza turish;

Itdek g‘ingshimoq;

Shaharning qo‘zisi bo‘lguncha, qishloqning tozisi bo‘l;

Och itga suyak tashlasang, to 'q it ham akillaydi;
Behuda akillagan it, bo 'riga yem bo 'ladi;
Daydi it tayoq yemay qolmaydi;
Sovchilikda itning kosasi ham misdan deyishadi;
Begona joyda tozi it quyonni tuta olmaydi;
Itni urush uchun tayoq topiladi;
Qopmaydigan it bo 'lmaydi;
It sug 'ormoq-behuda harakatni ifodalaydi.

"It hurar karvon o'tar" —frazologizmda ham itning salbiy ya'ni bo'lar bo'lmasga hurushi natijasida yuzaga kelgan.

Xuddi it kabi mushuk nomi asosida yuritiladigan frazeologizmlar ham inson hayoti va uning turmush tarzi bilan bog'liqdir. Masalan "Mushuk ham tekinga oftobga chiqmaydi" iborasida mehnatga yarasha haq to'lanishi "Suvga tushgan mushukday" ya'ni qiyin ahvolda qolish nazarda tutiladi. Bulardan:

Sutga to 'ygan mushukday-nafsi qongan;
Mushuk kesib o 'tgan yo 'l-behosiyat bo 'lishi;
Mushuk silaganday-sinonimi moyday yoqib tushmoq;
Qora mushuk bo 'lmoq-yoki Yuvilmagan qoshiq bo 'lish;
Mushuk tuqqan joyga ham bormoq-duch kelgan joyga borish;
Mushuk sichqon o 'ynamoq-qaltis hazil qilish ma 'nosida ishlatiladi.

2.2-§. Yovvoyi hayvon nomlari bilan bog'liq zoofrazeologizmlar

Salbiy ma'no ifodalovchi frazeologizmlarning ko'pchiligini yovvoyi yoki yirtqich hayvonlarni simvallashtirish hisobiga shakllangan. Chorvachilik bilan shug'ullanuvchi kishilar, hayvonlar orasida munosabatlarni ham sinchiklab kuzatgan. Kuchli hayvonlarning zaiflariga kun bermay kelishi. Masalan, bo'rining suruvlarga xavf solib turishi cho'ponlarning nafratini qo'zg'ab kelgan. Bunday nohush hodisalar ularning nutqida aks etgan va keyinchalik sayqallanib, xalq tiliga o'tgan va keng targalgan "Och bo'ri kabi tashlanmoq"-iborasida ko'rish mumkin.

Faqat o‘zbeklarda emas, boshqa xalqlarda ham bo‘ri yirtqichlik ramzini ifodalab kelgan shu sababli-Bo‘ri yeb ketadi?! Bo‘ri yeydimi?! Bo‘ri kelyapti?! Bo‘rini yo‘qlasang, qulog‘i ko‘rinadi kabi iboralar ko‘p qo‘llaniladi.

"Bo‘rini yesayam og‘zi qon, yemasayam og‘zi qon" maqolida yirtqich hayvon hamisha yomon yoki yomon-yomonda ma’nosini beradi.

Yetti xazinaning biri bo‘lgan quyon va uning ta’na a’zolari xususan qulog‘i iboralarda asosiy komponent vazifasida keladi. Masalan:

Bir o‘q bilan ikki quyonni urmoq;

Quyunday boshlamoq;

Ko‘pdan quyon qolmas;

Quyvon bo‘lmoq-qochmoq ma’nosida yoki *quyonni rasmini chizmoq* sinonimi sifatida. Quyondek qo‘rqoq-quyon obrazida inson harakteri simvallashtiriladi. Qulog‘ini qabartirmoq ya’ni quyonning harakteriga qiyos olingan. Quloqlarini dikkaytirmoq va qulog‘ini tik qilmoq iboralari shular jumlasidandir. Quloqlarimni quyunday ding qilib oldim. Bu gapdagi quloqlarini ding qilmoq, dikkaytirmoq iborasi bir narsani to‘satdan eshitib qolib, shubhalanib, aniqroq eshitish uchun jamlashni bildiradi.

O‘zbek tilidagi "Tulkiday ayyor" "Qari tulki" frazeologizmni rus tilida "Хитрая лиса", kabi ayyorlik ramzi sifatida tulki obrazlari gavdalanadi.

Sher yoki arslon obrazi ham komponentda qo‘llanadi. Masalan: "Qafasdagi sherday tipirchilamoq", "Sichqondek dushman bo‘lsa ham, sherday kuching bo‘lsin", "Yigit so‘zidan, arslon izidan qaytmas" birliklarida kuch qudrat mardlik timsoli sifatida ko‘rinadi.

Quyidagi hayvonlar ma’lum bir xususiyatga ko‘ra ajratilmaydi ammo bu nomda zoonimlar mavjud.

Kiyik.

Ishongan tog‘ingda kiyik yotmas;

Miltiq yo‘g‘ida kiyik uchraydi.

Maymun.

Holingga maymun yig‘laydi.

Ayiq.

Ayirilganni ayiq yer.

Fil.

Pashshadan fil yasamoq, qildan qiyiq bog'lamoq.

Cho'chqa

"Cho'chqadek iflos, cho'chqaday yeydi" iboralarida unga salbiy obraz sifatida qaraladi.

Yoki ilonning salbiy belgi-xususiyatlariga ko'ra "Yer tagida ilon qimirlasa bilmoq", "Ilonning yog'ini yalagan", "Ilon po'st tashlaydi", "Ilonning oyog'ini sanagan", "Ilonday avramoq" frazeologizmlar shakllanadi. Bundan tashqari "Ilonday chaqib oluvchi", "Qo'ynida ilon saqlamoq", "Yotgan ilonning dumini bosmoq"-iboralarida ham u salbiy obraz sifatida saqlanadi.

Toshbaqa obrazi sekin harakatlanuvchi hayvon sifatida turg'un birliklarda saqlangan. "Toshbaqa toqqa chiqqanda yoki tolga chiqqanda"-amalga oshishi qiyin bo'lgan ish ma'nosida.

Yovvoyi hayvonlar xo'jalik turmush tarzida faol bo'lmaganligi sababli qo'llanuvchi birliklar hisoblanadi.

2.3-§. Hayvonlarning tana a'zolari bilan bog'liq zoofrazeologizmlar

Men tadqiq qilgan tasnifning uchinchi turi alohida olingan holda deb ataladi. Bunda hayvonlarning imkoniyatidan tashqari, biologik nuqtai nazardan amalga oshmaydigan birikmalar hamda ularning tana a'zolari asosida shakllangan iboralar, aytib debdi qabilidagi tuzilmalardan iborat. Bundan tashqari tovuq nomi asosidagi tuzilmalarni ham kirgizdim. O'zbek xalqida insonning imkoniyatidan tashqari, u qadar bolmagan ish haqida gapirilsa quyidagi birliklar misol qilinadi. Bular:

Toshbaqa toqqa yoki tolga chiqqanda;

Ho'kiz tuqqanda;

Tovuqni tishi chiqqanda;

Tuyani dumi yerga tekkanda;

Xo'roz tuxum qo'yganda.

Shuni ta'kidlash joizki men tadqiq etgan frazeologizmlar komponentlari faqatgina hayvon nomlari emas balki ularning tana a'zolari ham o'zbek tilida ko'p qo'llanadi. Shu kabi frazeologizmlar haqida to'xtalamiz. Dum komponentda:

Dumini tugmoq-qaytmas qilib haydamoq;

Dumi xurjunda-o'lda jo'lda, to'mtoq chatoq;

Dumini likillatmoq-hushomad qilish;

Dumini ushlamoq-uchratib qistovga olish.

Umumiy holda hayvonlar to'dasi bo'lgan poda so'zi orqali quyidagi ibora mavjud. "Podadan oldin chang chiqarmoq"-ro'yobga chiqishi aniq bo'lmagan narsa haqida hovliqmalik bilan vaqtdan ilgari gapirib yubormoq.

Bundan tashqari "Po'stagini qoqdi"-ayovsiz tanqid qildi, "Po'stiga somon tiqdi"-juda qattiq jazoladi.

"Qildan qiyiq qidirdi"-deyarli aybi yo'q odamning faoliyatidan ayb topishga harakat qildi.

"Qildan quyrug'igacha"-butun tafsiloti bilan mayda-chuydasigacha, batafsil hozirda keng iste'molda mana shu iboraga sinonim sifatida ipidan ignasigacha; miridan sirigacha o'xshashi bo'lib boshdan oyoq iboralari ham qo'llanadi.

Bundan tashqari tumshuq, qanot, pix kabi qushlar a'zolari asosida ham iboralar uchraydi:

Tumshuq suqmoq-kirdi, aralashdi;

Tumshuq tiqmoq-aralashmoq;

Pixini yorgan-o'ta ketgan uddabron;

Quv qanotini qayirmoq-ishiga halal bermoq;

Kuydurilgan kalladay-kulgili bo'lmoq.

Shuni aytish kerakki frazeologik birliklar tarkibidagi ba'zi leksemalar nafaqat frazeologik axborotning ma'nosiga ta'sir ko'rsatadi, balki sintaktik bo'yoq bo'lib ham xizmat qiladi.

Aytibdi-depti

Tuyadan so'rashibdi:

– "Nega bo'yning egri?",

Tuya debdi:

– "Qayerim egri".

Ma'nosi insonning tabiiy bo'lgani shu uning kamchiliklarini aytib uni kamsitish kerak emas, qolaversa tuya qing'ir-qiyshiq bo'lsa ham, ahmoqona savolga oqilona javob bergan.

– Eshak aytibdi-"Agar oyog'im toyimasa tog'niyam ko'taraman"

– Eshak "Bolali bo'lding" deyishganda, eshak: "Ustimdagi yukimni olmaydi, oldimdagi yemishimga sherik bo'ladi" debdi.

– Eshakni to'yga taklif etishibdi. U "Yo o'tin kam yo suv deb hayolidan o'tkazibdi."

– Xo'roz aytibdi "Men qichqirmasam tong otmaydi".

– Qarg'a aytibdi "Mening bollarim oppoq".

– Tipratikan "Mening bolam yumshoq".

Tovuq nomi asosida ham birliklar shakllangan bularga misol sifatida "Tovuq miya"-ayrim kishilarga kalta fahmligi, "Esi past" tovuqqa qiyoslanadi, kishiga salbiy sifat berilganda ana shu parrandaga nisbat beriladi.

Masalan: "Qaysi tovuq miyali tuzibdi buni?" gapi ahmoqlik ramzi sifatida qo'llangan.

O'tkir Hoshimovning "Ikki eshik orasi" asarida quyidagi iborada tovuq "Yetti xazinaning biri" sifatida mol-dunyoni ifodalab kelgan.

"Omadi ketganni tovug'i kurk bo'ladi. Omadi kelganning xo'rozi ham tuxum qo'yadi" shaklidagi birlik ifodalangan.

Bundan tashqari:

Oyog'i kuygan tovuqday;

Bir tovuqqa ham don, ham suv kerak maqolida ham ramziy timsol sifatida qo'llaniladi.

II Bobga doir xulosalar

Ushbu bobda zoonimlarning "Xulq-atvori" tahlili bizga quyidagilarni aytishga imkon beradi. Ko'rib chiqilgan zooleksemalar tilning matnlarida faol ishlatiladi va turli xil illatlarning timsoli sifatida xizmat qiladi. Tilning zoonimlari

odamning fe'l-atvorini, holatini, xatti-harakatlarini va xulq-atvorini salbiy ham ijobiy baholash uchun ishlatiladi, bu hayvonot dunyosi vakili idrokining o'ziga xosligi bilan izohlanadi, bunda xuddi shu hayvon o'xshash belgilar bilan tavsiflanadi.

Kommunikativ frazeologik birliklarning tuzilmasi, hayvonlar sayyoramiz hayotida doim muhim ahamiyatga ega. Ular ibtidoiy odamlarning marosimlarida ilohiylashtirilib qo'llanilgan va ko'pgina lingvistlarning ta'kidlashlaricha aynan ana shu marosim (ritual)lardan til vujudga kelgan. Insoniyat mavjud ekan hayvonot olami bilan yonma-yon yashaydi. Hayvonlar ham insonga butun umri davomida hamroh bo'lib, inson hayotining ajralmas bir qismiga aylanadi. Buning natijasida ba'zi hayvonlarning o'ziga xos xususiyatlari inobatga olinib, ma'lum bir xalq uchun ramziylashtirilgan. Masalan, sigir osmonni gavdalantirgan. Ot tunni aks ettirgan va ov dunyosini ifodalagan. bo'sa, mushuk yovuzlik va jodugarlikning timsoli sifatida qaralgan. O'zbek adabiyotida zoonimlar qadimgi bitiklarda qo'llanganligini aytib o'tdik. Sababi o'zbek xalqi qadimdan hayvonlarni xonakilashtirgan, chorvachilik bilan shug'ullangan, qir-adirlarda yilqi boqishgan. Chorvachilikda, asosan, qora mol – sigir hamda qo'y singari uy hayvonlari kishilarning to'q hayot kechirishlariga xizmat qilgan bo'lsa, it uy-o'choq qo'riqchisi, tulki, bo'ri va shoqollar kishilarning halovatini o'g'irlagan. Shu kabi omillar zoonimlarning tilimiz va adabiyotimizda keng qo'llanishiga sabab bo'lgan.

Biz yuqorida tilidagi zoonim frazeologizmlarni tahlil qilganimizda uch asosiy hayvon – it, ot va mushuk bilan bog'liq frazeologizmlarning nisbatan ko'p ekanligiga guvoh bo'lgan edik. Dastlab o'zbek tilidagi ana shu uch zoonim bilan bog'liq o'xshatmalarni tahlilga tortsak:

1. It – o'zbek tilida ham ancha keng qo'llaniluvchi zoonim hisoblanadi. Sababi yuqoridagi boblarda aytganimizdek it doim o'z egasiga vafodorlik bilan xizmat qilgan. Shu sababdan tilimizda bu zoonim bilan bog'liq: it vafo – xotin jafu maqoli paydo bo'lgan bo'lsa ajab emas. Tilda zoonimlarni frazeologizmlar qo'llash orqali inson fe'l-atvoriga muqoyasa qilish ko'p uchrasa, o'zbek adabiyotida to'g'ridan to'g'ri qiyoslash (-dek, -day) affikslarini it zoonimiga qo'shish orqali yasalgan bu

hayvonga xos bo'lgan vafodorlik hislatini ulug'lovchi o'xshatmalarni ko'plab uchratish mumkin (Eslatma*- tahlillar uchun o'zbek adabiyotidan olingan misollar - "Низомиддин Маҳмудов. Ўзбек тили ўхшатмаларининг изоҳли луғати, Тошкент, 2013" kitobidan olindi).

Ustozi hayot vaqtida ipakday muloyim, itday sadoqatli bo'lgan bu bukri savdogar Rayxonabonuga tajovuz qilgan (O.Yoqubov. Ko'hna dunyo). Majididdin vafodor it singari qarab, murojaat etdi (Oybek. Navoiy). Shunda Abdurahmon taqdir bu qiz bilan uni chambarchas bog'laganini, endi u hozirgina duch kelgani – mehr ostonasida itday sadoqat bilan umr kechirishini yuragi zirqirab angladi (U.Azim. Sevgi). Soddaligi bois, qishloqda unchalik obro'yi yo'q. Biroq do'stga itday sodiq (N.Norkobilov. G'animlar). Guchchi pakana esa unga itday sodiq (N.Norkobilov. G'animlar).

Bu o'rinda it zoonimi ijobiy muqoyasa vositasi bo'lsa, ba'zi o'xshatmalarda itning fiziologiyasiga oid salbiy jihatlar "vovullash", "akkillash" kabilar kishining fe'l-atvoriga qiyoslanaladi.

Xulosa qilib aytsak, semantik jihatdan hayvon obrazi orqali ochib berilgan frazemalar tilimizni yanada boyitadi.

3- BOB.

ZOOFRAZEOLOGIZMLARNING LINGVOMADANIY TAHLILI

3.1-§.Zoofrazeologik birliklarning lingvokulturologik xususiyatlari

Har bir xalq xarakteri va mentalitetini ochib beruvchi frazeologizmlar va ularning bir qismini tashkil etuvchi zoomorfizmlar muayyan millat haëti, tarixi va o‘zligini o‘rganishga katta ërdam beradi. Zoonimli frazeologizmlar o‘tgan asrning oltmishinchi yillaridan boshlab tilshunoslik fanida zoomorfizmlar deb atala boshlandi. Zoomorfizmlar masalasini A.Kunin, M.Cheremesina, E.Kasitadze, E.Gutman, G.Hakimova, D.Baxronova, Z.Xolmonova, Sh.Almamatova, Z.Jumayeva³⁶ kabi xorij va o‘zbek tilshunoslari o‘z tadqiqotlarida ko‘rib chiqqanlar.

Hayvonlar: tulki - ayyorlik va chaqqonlik; bo‘ri - ochko‘zlik va yirtqichlik; cho‘chqa – ochko‘zlik; ilon - makkorlik, hiylakorlik, razillik, qabihlik; ayiq - muruvvatlilik, qo‘pollik, beso‘naqaylik; maymun – nomustaqillik; arslon - kuchlilik, muruvvatlilik, oliyjanoblik; qo‘y - yuvoshlik va nomustaqillik; chumoli – mehnatkashlik; eshak – ahmoqlik; it - vafodorlik ramzi sifatida shaxsning u yoki bu xarakteri, xulq-atvorini ifodalaganlar. Mazkur zoonimik leksemalar frazemalar tarkibida ishtirok etib, ularni ifodaviy va mazmunan shakllantiradi. Masalan, qo‘y – leksemasi bilan nutqda qo‘llanilish darajasi yuqori bo‘lgan «qo‘yi mingga yetdi», «qo‘ydek yuvvosh», «qo‘y og‘zidan cho‘p olmagan» kabi frazemalar shakllanadi. Bunda qo‘yning xislatlari frazemalar uchun mantiqiy asos bo‘lib xizmat qiladi. Qo‘y – ayniqsa, oq qo‘chqor qadimgi turkiy xalqlar tomonidan Ko‘k tangriga bag‘ishlangan qurbonlikdir. O‘zbek lingvomadaniyatida qo‘y yuvoshlik timsoli, Islomda qurbonlik hayvoni sifatida namoyon bo‘ladi³⁷.

Yovvoyi yoki yirtqich hayvon nomlarini ifodalovchi leksemalarni simvallashtirish hisobiga salbiy ma’no ifodalovchi frazemalar shakllanadi. Ilon –

³⁶ Холмонова З. Лингвокультурологияга оид тушунчалар тадқиқи. –Тошкент. Наврўз, 2018. –Б.45. Алмамадова Ш.Т. Ўзбек тили фраземаларининг компонент тахлили. Филол. фанлари номзоди...дисс.Тошкент, 2008. –Б.62. Бахронова Д.К. Антропозооморфизмларнинг семантик ва лингвокультурологик хусусиятлари. Автореф.дис...(PhD).–Тошкент,2017. – Б.15.), Жумаева З. Фраzeологик бирликларнинг семантик ва лингвокультурологик тадқиқи. Автореф.дис...(PhD).–Жиззах, 2021.

³⁷ Усмонова Ш.Лингвокультурология. – Тошкент, 2019. – Б.152.

murakkab va universal timsollar sirasiga kiradi. Bulg'orlar ilonni o'ldirmaganlar, boshqirdlar o'n ikkita Tangridan biri sifatida qabul qilganlar, Qalmiqlar ilonni samoviy mavjudot deb bilganlar³⁸. Yunon an'alarida ilon donishmandlik, hayotning yangilanishi, qayta tirilish ramzi hisoblanadi. Aslida, daholik, hushyorlik ramzini anglatsa-da, ilonning salbiy belgi-xususiyatlari asosida o'zbek tilida «yerning tagida ilon qimirlasa bilmoq» frazemasi shakllanib, o'ta sezgir kishilar xarakterini ifodalaydi. «Ilon yog'i yegan», «ilonning yog'ini yalagan», «ilon po'st tashlaydi», «ilonning oyog'ini sanagan», «ilonday avramoq» kabi frazemalarning shakllanishida ayni shu belgi-xususiyatlar mantiqiy asos bo'lib xizmat qilgan va ilon leksemasi semantik tayanch a'zo bo'lib keladi. «Ilon» zoonim komponentini rus tilida ham salbiy ma'noda qo'llashadi: «змея подколотная»– o'taketgan yaramas, yovuz odam, «змею на груди отогрет» – qo'unida ilonni asramoq. «До зелёного змия» – iborasi o'lgudek ichmoq, haddan tashqari mast bo'lmoq ma'nosida keladi va bu iboraning muqobili o'zbek tilida umuman yo'q. Bu holat millat ruhiyati va diniy e'tiqodi bilan ham bog'liq. Hammaga ayonki, musulmonchilikda mast qiluvchi ichimliklar iste'mol qilinishi taqiqlangan³⁹.

Hayvonlar timsoli inson nazdida aksariyat hollarda salbiylikni anglatgani uchun ham ularni simvallashtirish asosida asosan salbiy ma'noli frazemalar shakllanadi. Shuning uchun ham so'kish, qarg'ishni ifodalovchi so'z va so'z birikmalari tarkibida hayvonlar nomini ifodalovchi so'zlar uchraydi.

Uy hayvonlari nomlarini ifodalovchi leksemalar frazemalar komponenti bo'ladi. Uy hayvonlari nomlarining frazeologik faolligi shundaki, ular inson bilan birgalikda hayot kechiradi. Uy hayvonlarining inson bilan yaqinlik tomonlari ko'p. It sodiqlik, vafodorlik timsoli hisoblanadi. Ayni shu obraz asosida o'zbek tilida qator frazemalar shakllangan. **Itday vafodor bo'lmoq** frazemasining shakllanishida itning insonga bo'lgan vafodorlik xususiyati asosga olinadi. Itga xos

³⁸ Roux J.P. Turklerin Ve Mog'ullarin Eski dini. Ceverin: A. Kazancigil. -Istanbul: Isaret Yayinlari, 1998. –S.151.

³⁹ Жумаева З. Фразеологик бирликларнинг семантик ва лингвокультурологик тадқиқи. Автореф. дис... (PhD). –Жиззах, 2021. – Б 16.

bo'lgan bu xususiyat insonga nisbatan qo'llanadi va birikma komponentlarining ko'chma ma'nosidan frazeologik ma'no yuzaga keladi.

Itning kunini ko'rmoq, itning kunini solmoq, itning kunini boshiga solmoq frazemalari itning ayanchli yashash tarzini inson holatiga qiyoslash asosida paydo bo'lib, og'ir ahvolga tushgan, juda ko'p qiyinchiliklarga uchragan kishi holati ifodalanadi. Bu frazemalarda juda og'ir mashaqqatli, tahqirlashlarni boshidan kechirishga olib keladigan salbiy ishlarni amalga oshiradigan shaxs xarakteri ifodalanadi. ... *bo'lmag'ur gaplar bilan ranjitgani uchun it kunini boshiga solgan, mahallani boshiga ko'tarib, Alining o'yinini ko'rsatib kelgan edi.* (Mirmuhsin)

It azobida frazemesi o'ta qiynalgan shaxsning holatini ifoda etadi: ... *tayinli bir ishora bo'lmaganidan keyin Huriniso vinoni ichdi, lekin it azobida edi.* (A.Qahhor)

Xulq-atvori yoqimsiz, sovuq, muomalasi dag'al shaxsning xarakterini ifodalash uchun **it fe'l** frazemesi keng qo'llaniladi: *Halitdan it fe'lingni oshkor qilmoqchimisani?* (Oybek)

Itidan bir suyak qarz bo'lib yashamoq frazemesi esa o'ta kambag'al kishining qiyin ahvolini, yashash tarzini obrazli ifodalaydi.

Itidan olib, itga solmoq frazemesi shaxsning so'kish so'zlarini ishlatgan holda tahqirlamoq ma'nosini ifodalaydi: *Anov kuni gadolarini yig'ib, yana seni itidan olib, itga solibdi.* (A.Muxtor)

Ichini it tirnadi, ichini it tataladi kabi frazemalar shaxsning ichki kechinmalarini, tashvishli holatini ifodalaydi. **Itga bersang oshingni, itlar g'ajir boshingni** frazemesi **it** leksemasining birovning manfaatlarini himoya qilib, boshqalarga zulm o'tkazuvchi odam, malay, yaxshilikni ravo ko'rmaydigan, inson mehnatini qadrlamaydigan shaxs faoliyati obrazli ifodalanadi. **It hurar - karvon o'tar** frazemesi bajarilishi lozim bo'lgan ishga bo'lar-bo'lmas, asossiz to'siq bo'ladigan shaxslarga nisbatan ishlatiladi.

Ot insonning kundalik hayoti faoliyatida, uy-ro'zg'orida, har xil yumushlarni bajarishida ulov vazifasini bajaradi. Otning inson hayoti tarzi bilan

bunday yaqinligi qator frazemalarning hosil bo'lishiga sabab bo'lgan. **Oyog'i uzangida bo'lmoq, oziqlik ot qarimaydi, otning qashqasiday, otni qamchilamoq, ot solmoq, ot qo'ymoq, ot bilan tuyacha, toy mingan ot ham minadi** kabi nutqda ko'p ishlatilishi bilan xarakterlidir. **Otdan tushsa ham uzangidan tushmaslik yoki otdan tushsa ham egardan tushmaslik** kabi frazemalar bo'lar-bo'lmasga bahslashaveradigan, mantiqsiz, o'zining fikrini ma'qul qilishga harakat qiladigan shaxslarning xarakterini ifodalaydi.

Otdan tushsa ham egardan tushmaslik - mavqeini yo'qotganiga qaramay, o'zini avvalgiday tutmoq frazemasining **Otdan tushsa ham uzangidan tushmaslik yoki Egardan tushmaslik** kabi variantlari nutqda ko'p ishlatilishi bilan xarakterlidir. Masalan: *Otdan tushsa ham egardan tushmay, o'zini bir xil tutdi. (Said Ahmad) Ko'rdingizmi, Davronov otdan tushsa ham, uzangidan tushgani yo'q. (I.Rahim)*

Mushuk leksemasi ham frazemalarni shakllantirishda o'ziga xos o'rinni egallaydi. Birikmaga teng **mushugini pisht demaslik, hech qanday ozor yetkazmaslik** ma'noli fe'l frazemasini hamda **mushugini pisht deb bo'ladimi, mushugini pisht desa** kabi variantlar **mushuk** leksemasining semantik asosiga qurilgan. ... **Ichini mushuk tatalayapti, ichini ola mushuk tirnayapti, ichiga mushuk yutmoq** kabi frazemalar tarkibida **mushuk** leksemasi semantik notayanch leksema sifatida ishtirok etadi.

Buzoq leksemasi ishtirokida esa nutqda ko'p qo'llaniladigan **ammamning buzog'i, ammamning buzog'iday, buzoqning yugurgani somonxonagacha, buzoqning haqqi, nomaqul buzoqning go'shtini yebdi** kabi frazemalar shakllanadi. **Qo'y** leksemasi bilan ham nutqda qo'llanish darajasi yuqori bo'lgan **qo'yi mingga yetdi, qo'y og'zidan cho'p olmagan, qo'ydek yuvosh** kabi frazemalar shakllanadi. Bunda qo'yning xislatlari frazemalar uchun mantiqiy asos bo'lib xizmat qiladi.

Tuya leksemasi **tuya ko'rdingmi-yo'q, biya ko'rdingmi - yo'q, ot bilan tuyacha, ignadek ...ni tuyaday qilmoq, oq tuya ko'rdingmi - yo'q, ko'k tuya ko'rdingmi - yo'q, nonini tuya qilmoq, tuya qilmoq, hayt degan tuyaga**

darmon, tuyaning ustiga it qopmoq, tuyaning dumi yerga tekkanda frazemalari tarkibida semantik tayanch a'zo sifatida qatnashadi.

Eshak leksemasi semantik notayanch a'zo sifatida **ish bitguncha, eshak loydan o'tguncha, ish bitib eshak loydan o'tgandan keyin, ish bitdi, eshagi loydan o'tdi** kabi frazemalarning tarkibida qatnashadi.

Yovvoyi hayvonlarning nomlarini ifodalovchi leksemalar frazemalarning komponentlari bo'ladi. Yovvoyi yoki yirtqich hayvon nomlarini ifodalovchi leksemalarni simvallashtirish hisobiga salbiy ma'no ifodalovchi frazemalar shakllanadi. **Ilonning** salbiy belgi-xususiyatlari asosida **yerning tagida ilon qimirlasa bilmoq** frazemasi shakllanib, o'ta sezgir kishilar xarakterini ifodalaydi. **Ilon yog'i yegan, ilonning yog'ini yalagan, ilon po'st tashlaydi, ilonning oyog'ini sanagan, ilonday avramoq** kabi frazemalarning shakllanishida ayni shu belgi - xususiyatlar mantiqiy asos bo'lib xizmat qilgan va **ilon** leksemasi semantik tayanch a'zo bo'lib keladi.

Bo'ri yeb ketarmidi?, bo'ri yeydimi? kabi frazemalar **bo'ri** leksemasining yirtqichlik ma'nosi asosiga qurilgan va salbiy ma'noli frazemalar shakllangan.

Tulkining ayyorlik xislatlari ramziy belgisi asosida **tulkilik qilmoq, tulkiday ayyor** kabi frazemalar shakllangan bo'lsa, **arslonning** kuchlilik, qo'rqmaslik xislatlari ramziy belgisi asosida **yigit so'zidan, arslon izidan qaytmas, arslonning o'ligi - sichqonning tirigi** kabi frazemalar hosil qilingan.

Qushlar nomlarini ifodalovchi leksemalar frazemalarning nafaqat obrazlilikini, eng muhimi, ularning shakllanishini ta'minlaydi: **qushday yengil tortmoq** (varianti: **qush kabi yengil tortmoq**) frazemasi tarkibida **qush** leksemasi semantik tayanch a'zo, **bir kesak bilan ikki qushni urmoq, bir o'q bilan ikki qushni urmoq** frazemalarida esa semantik notayanch a'zo sifatida ishtirok etadi.

Bedana yurish, bedananing uyi yo'q, qayerga borsa - bitbildiq, bedanadan qo'rqqan tariq ekmas kabi frazemalar **bedana** leksemasining semantik asosiga qurilgan.

Pashshadan fil yasamoq, pashshani fil qilmoq, pashshasini fil qilmoq kabi frazemalar tarkibida **fil** leksemasi semantik notayanch a'zo sifatida ishtirok

etadi. **Qarg'a** leksemasi ishtirokida **qarg'a qarg'aning ko'zini cho'qimaydi, bir kesak bilan ikki qarg'ani urmoq** kabi frazemalar shakllangan.

Chumchuq leksemasi bilan birgina **chumchuq "pir" etsa, yuragi "shir" etadi** frazemasi shakllangan bo'lsa, **taka** leksemasi ishtirokida **taka bo'lsin, suti bo'lsin (taka bo'lsin(u, sut bersin)** frazemalari yuzaga keladi.

Shunday qilib, hayvonlar nomlarini ifodalovchi leksemalarning frazemik faolligi yuqori bo'lmasa-da, ularning nutqda qo'llanish darajasi ancha baland ekanligini qayd etish lozim. Zoonimik leksemalar sifat va ravish leksemalar bilan o'zaro bog'lashuvga kirishib, sifat va ravish frazemalar shakllanadi. Hayvonlarning obrazini simvallashtirish asosida shaxs faoliyati va uning sifat ko'rinishlarini ifodalovchi frazemalar shakllanadi. Zoonimik leksemalar frazemalar uchun mantiqiy (motivatsion) asos bo'lganida shaxsning salbiy xususiyatlarini ifodalovchi frazemalar yuzaga keladi.

O'zbek tilida hayvonot olamini ifodalovchi leksemalar aksariyat hollarda salbiy ma'noli frazemalarning shakllanishida komponent sifatida ishtirok etadi. Bunday frazemalar nutqning obrazlilikini, uning ta'sir qiluvchanlik xususiyatini yanada oshirishga xizmat qiladi.

3.2-§. Zoofrazeologizmlarda inson konsepti

O'tgan asrning oxirlarida tilshunoslikda yangi yo'nalish – tilni o'z egasi bilan bog'liq holda o'rganadigan antropotsentrik paradagma shakllana boshladi. N.Mahmudov antropotsentrik paradigma va shu paradigma doirasida tahlillarning bevosita tilning mohiyatiga doxldor ekanligini aytib, uning mohiyatini quyidagicha tushuntiradi: “Tilning ana shu obyektiv xususiyatiga muvofiq ravishda antropotsentrik paradigmada inson asosiy o'ringa chiqariladi, til esa inson shaxsini tarkib toptiruvchi bosh unchur hisoblanadi⁴⁰”

Antropotsentrik paradigma o'z ichiga etnolingvistika, psixolingvistika, sotsiolingvistika, dingvokulturologiya, kognitiv tilshunoslik kabi til sohalarini

⁴⁰ Маҳмудов Н. Тилнинг мукамал йўлларини излаб... // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2012, №5. – Б.7.

qairaydi. Til soʻzlovchi shaxsi bilan birgalikda oʻrganilar ekan, uning tavsifi ham oʻzi mansub millat madaniyati va mentaliteti bilan birga olib qaralgandagina beriladi. Ana shu jihat, yaʼni til va milliy-madaniy jipslik lingvokulturologiya tadqiqotlarning markazida turadi. Albatta, tildagi aksar birliklar u yoki bu darajada milliy-madaniy oʻziga xosliklarni namoyon etadi, ana shunday til birliklari borki, ular milliy-madaniy oʻziga xosliklarning benihoya betakror timsolidir. Shu maʼnoda frazeologiyalar millat meitaliteti, madaniyati, turmush tarzi hamda uzoq yillik kuzatuvlarining aniq ifodasidir⁴¹. Shu narsa aniqki, xalqning ziynati va tabiatini, ruhiyati va mentalitetini tildan ayro holda tasavvur qilib ham, tadqiq etib ham boʻlmaydi. Tildagi birliklarda, ayniqsa, obrazli soʻz, obrazli ibora-ifodalarda xalqning mental oʻziga xosligi u yoki bu tarzda inʼikosini topadi⁴².

Inson doimo tabiat olamiga qiziqqan va oʻrganishga harakat qilgan. Shakshubhasiz, inson dunyoni bilishni atrofda qilarni oʻrganishdandan boshlagan. Hayvonlar bilan ming yilliklar davomida birga yashash uchun toʻplangan bilimlar dastlab diniy va mifologik xususiyatga ega boʻlgan ular haqidagi gʻoyalar va bilimlar xarakter, insoniylik haqidagi ilmiy bilimlar uchun asos sifatida foydalaniladi. Hayvonot dunyosi, insonning ikki tomonlama tabiatini, odamlar oʻrtasidagi farqni tasvirlashga harakat qilib, xatti-harakatni, tashqi koʻrinishni, his-tuygʻularini yorqin va hissiy jihatdan tasvirlashga harakat qiladi. Insonlar boshqalarni unga aniq va yaqin boʻlgan narsalar bilan taqqoslaydi va hayvonlar bilan - uy va yovvoyi haqida bilim va gʻoyalar asosida tilda hayvonlarning tuzilishi, kelib chiqishi, xatti-harakati va turmush tarzi paydo boʻldi. Hayvonlarga xos xususiyatlar turli xil birikmalar asosida odamlarga koʻchirilgan holda ifodalanadi.

Borcha tillardada zoonym shaxsni baholash uchun ishlatilishi mumkin. Har kuni mehnatkashlik ot, hoʻkiz, eshak bilan ifodalanadi; yuvoshlik qoʻy, sigir va boshqalar kabi hayvonlarni tavsiflaydi. Zoonimlar nutqda shaxsni, uning shaxsini

⁴¹ Йўлдошев Б. Ҳозирги ўзбек адабий тилида фразеологик бирликларнинг функционал-услубий хусусиятлари. – Тошкент, 1996, – Б.21.

⁴² Маҳмудов Н. Ўхшатишлар ва миллий образ... // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2013, №1. – Б.3.

tavsiflashda yordam beradi, tashqi ko‘rinish, jismoniy fazilatlar, xarakter xususiyatlari, aql-zakovat izohlab keladi.

Zoofrazeologizmlar ham ma’lum xalqning tarixi, mental xususiyatlarini va dunyoqarashini namoyon etuvchi birliklardir. Zero, hayvonot olami, xususan, uy hayvonlarining inson hayoti va xo‘jaligida qanchalik muhim o‘rin tutishi tufayli tilda ham ularning nomlari asosida shakllangan zoonim komponentli frazeologik birliklar ancha uchraydi. Uy hayvon nomlarining har biri ma’lum salbiy yoki ijobiy, ramziy va majoziy ma’no ifodalaydi.

Jumladan, inson konsepti bilan bog‘liq bo‘lgan zoofrazeologizmlarni quyidagicha guruhlashimiz mumkin:

Insonlar xatti-harakati bilan bog‘liq iboralar: o‘zbek tilidagi *toshbaqaday sudralmoq* iborasi va ingdiz tilidagi “At a snail’ space” *shilliqurtdek qadam tashlamoq* iboralarini o‘ta sekin qimirlaydigan insonlarga qarata aytiladi. Faqat o‘zbeklar sekin harakat belgisi sifatida *toshbaqani* olsa, ingdizlar shilliqurti ishlatishadi.

Ehsakday ishlamoq, g‘oz yurmoq, quyon bo‘lmoq kabi frazeologik birliklarda eshakning ko‘p mehnat qilishi, g‘ozning kekkayib yurishi, quyonning tez qochib qolishi insonlarning xatti-harakatiga nisbatan beriladi.

Insonning xarakteri bilan bog‘liq bo‘lgan iboralar: O‘zbek tilidagi “*Qo‘y og‘zidan cho‘p olmagan*” iborasining ma’nosi nihoyatda darajada beozor, mo‘min kabi ijobiy ma’noda kelib, muloyim, beozor insonlarga nisbatan ishlatiladi. Ingliz tilida ko‘zi o‘tkir insonlarga nisbatan “Burgut ko‘z” iborasi ishlatiladi. O‘zbek tilida ham ko‘zi o‘tkir insonlarga nisbatan ham “Burgut ko‘z” iborasi ishlatiladi. Demak, har ikki xalqda ham burgutning ko‘zi o‘tkirlik belgisi inobatga olinadi.

Insonning tashqi ko‘rinishi bilan bog‘liq iboralar: *Echki soqol* birikmasi ikki ma’noda 1) echkining soqoliga o‘xshagan uzun, cho‘qqi soqol; 2) shunday soqolli odam. Har ikki holatda ham salbiy ma’ni ifodalanadi. Demak, *echki* leksemasi qatnashgan frazeologizmlarda salbiy ma’no etakchilik qiladi.

Insonning ovozi bilan bog‘liq iboralar: Ingliz tilida “The cat’s meow” iborasi *mushukning miyovlashi* ma’nosini bildirib, inson biror narsani juda yaxshi, a’lo deb o‘ylaganda ishlatiladi va ijobiy ma’noda keladi. O‘zbek tilida esa *mushukning miyovlashiday* deganda yalinmoq ma’nosida keladi. Ko‘rinadiki, mushuk bilan bog‘liq frazeologik birliklar ikki xalqda ikki xil ma’noda qo‘llanilar ekan.

Demak, zoofrazeologizmlar turli salbiy va ijobiy ma’nolarni anglatib, bir qismi insonning salbiy tomonlarini ifodalasa, bir qismi uning ijobiy fazilatlarini izohlab keladi. Insonlarning ushbu ma’nolar zahirida yotgan o‘ziga xos xususiyat, holat, xarakter, va belgilarni o‘zida qiyoslab, shu asosida o‘ziga baho beradi.

3.3-§. O‘zbek, fransuz, ingliz, nemis tillarida zoofrazeologizmlar

Har bir xalq tilidagi iboralar asrlar davomida juda katta hayotiy tajribalar asosida sayqallanib, turli vositalar bilan kelajak nasllarga meros qilib qoldiriladi. Shu sababdan ham ular bebaho meros hisoblanadi. Qoldirilgan bunday bebaho merosni o‘rganish yoki o‘rgatish, ayniqsa, til o‘rganish bilan bog‘liq bo‘lgan hollarda o‘ziga xos ma’suliyat va chidam talab qiladi. Xususan ko‘pgina tillarda uchraydigan iboralarda o‘zaro yaqinligi bir qancha qulayliklar bo‘lgani holda, o‘ziga xos farqli tomonlari ham bordir. Har xil xalq tillaridagi iboralar imkon darajasida o‘rganilib chiqildi. Bundan asosiy maqsad minglab iboralar ichidan eng faollarini saralab olish edi. Ishga shu muqta nazardan yondashgan holda iboralarni qiyosiy tahlili tuzildi. Ishimning uchinchi bobida aks etmagan iboralarni keng hajmli lug‘atlardan topish mumkin. Frazeologizmlar turli hayvon nomlarini ifodalovchi frazeologik birliklarning o‘rganilishi nafaqat frazeologizmlar yasalishidagi tizimli munosabatlarini aniqlab beradi, balki dunyoqarashning o‘ziga xosligini umumiyliigi hamda milliy o‘ziga xosligini ochib beradi. Materiallar tahlili jarayonida frazeologizmlarning hosil bo‘lishida asos rolini o‘ynagan timsoliy obrazlar ko‘pincha tillarda umumiyliigi bilan xarakterlanadi. T.Z.Cherdanyeva hayvonlar nomlari obrazlari va ularni simvallashtirish turli tillarda umumiy yoki farqli o‘zining "Языкиеве образы" asarida alohida ta’kidlaydi. Bu hol

hayvonlar belgilarining bir xilligi va kishilar tomonidan bir xil qabul qilinishi bilan izohlanadi. Masalan: "Itday vofodor bo'lmoq" frazeologizmi rus tilida "Верный как пес" fransuz tilida "Fidele comme un chien (itday vofodor)" tarzida bir xil obraz asosida gavdalanadi⁴³. O'zbek tilida "Tulkiday ayyor" frazeologizmi rus tilida "Хитрый как лиса" fransuz tilida "Malin comme un singe" (maymunday ayyor) tarzida ifodalanadi⁴⁴. Bunda o'zbek va rus tillarda ayyorlik ramzi sifatida tulki obrazi, fransuzlarda esa maymun ayyorlik belgisi sifatida gavdalanadi. Fransuz va o'zbek tillaridagi hayvon nomlarini bildiradigan frazeologik iboralarni semantik va lingvomadaniy jihatdan tahlil qildik. Bir tarafdin ushbu qatlam fransuz va o'zbek frazeologiyasining ajratib bo'lmas bir qismi bo'lsa, boshqa tarafdin dunyoning turli hududlarida yashovchi xalqlar tilida umumiy frazeologik manzarasining bir bo'lgi bo'lib xizmat qiladi.

Semantik jihatdan hayvonlarga yo'naltirilgan, ammo metaforik tarzda insonni nazarda tutuvchi frazeologik iboralar har ikki tilda ham muhim rolga ega.

Quyida komponenti zoonimlar bo'lgan misollarni keltiramiz.

Eshak. L'ane.

"Brider l'ane you la queue (eshakning qulog'idan tishlash)". Ishni boshqa joydan boshlamoq, nonni o'rtasidan yemoq.

"Faire l'ane pour avoir du bran (eshakka suv tashitmoq)". Jinni qilmoq.

"Monter sur l'ane (eshakni izidan bormoq)". Xato ish qilib qo'ymoq.

Mushuk. Le chat

"Saire de la bouillie pour les chats (mushukni ishini qilmoq)". Bekorga ovora bo'lmoq.

"Appeler un chat un chat (narsalarni mushuk, mushuk qilish)". Narsalarni o'z nomi bilan atamoq.

"Bailer le chat par les patter (mushukni tirnog'idan ushlash)". Ishni eng qiyin nuqtasidan boshlamoq.

⁴³ M.Sodiqova "Qisqacha o'zbekcha-ruscha frazeologik lug'at" Toshkent-1994

⁴⁴ Бардоши В., Эттингер Ш., ШтельтингС., Бутина Е В. Фразеологизмы французского языка: Словарь-практикум. Екатеринбург: Уральское изд-во, 2002.

"Evliller le chat qui dort (uyqudagi mushukni uyg'otmoq)". Yotgan ilonning dumini bosmoq.

"Frequenter le chien et le chat (mushuk tuqqan joyga ham bormoq)". Hamma joyga boravermoq.

"Seter le chat aux jambs deqn (mushukdan sutni olmoq)". Kimnidir oyog'iga bolta urmoq.

"Jouer au chat et a la souris". Mushuk sichqon o'ynamoq.

"Retomber comme le chat sur ses pattes (mushukni balanddan tashlasang ham oyog' i bilan tushadi)". Suvdan quruq chiqmoq.

Chien. It

"Faire le chien couchant (itdek dumini silkitmoq)". Yaltoqlanmoq.

"Couper la queue de son chien (itni qilg'ini qilish)". O'ziga qaratish uchun ekssentrik harakatlar qilmoq.

"Donner sa part aux chiens (it qarash bilan qarash)". Bepisandlik qilmoq.

"Jeter son lard aux chien (itday daydimog)". Sayoq yurish.

"Jeter les louanges aux chiens"-Itga sariyog' yarashmas.

"Traiter qn comme un chien (itday qopmoq)". Kim bilandir shavqatsizlarcha muomala qilmoq.

Le lievre. Quyon.

"Chasser deux lievres ala fois (ikki quyonni birdan ushlab bo'lmaydi)". Ikki kemani boshini tutgan g'arq bo'ladi.

"Prendre le au collet (quyonni qulog'idan ushlash)". Kerak joyidan tutmoq.

"Bailer le lievre parl'Oreille aqn (quyonni gapini aytmoq)". Birovning ustidan hazillashmoq

"Lancer le lievre-(quyonni chalmoq)". To'sqinlik qilmoq, oyog'idan chalmoq

Le loup. Bo'ri.

"Aller a de loup (bo'riday kuzatmoq)". Sekin poylab bormoq.

"Saire un loup- (bo'riday tishini kovlamoq)". Bekorchi ish bilan shug'ullanmoq.

"Garder lou lune des loup-(bo'rini ovida bo'lish)". Keraksiz ishga bosh qo'shish.

"Sroid de loup (bo'rini o'ldiradigan sovuq)". Itni o'ldiradigan sovuq.

Ayiq. Lours

"Poser un aurs (Ayiqday valdirash)". Gap sotmoq.

"Vendre la peau de Pours (Ayiq oldin yuguradi)". Podadan oldin chang chiqarmoq.

"Envoyer ours (Ayiqni tovonini to'g'irlash)". Kovushini to'g'irlab qo'ymoq.

"Foire l'ourse en coge". Qafasdagi ayiqday tipirchilamoq.

En renard. Tulki

"Agir en renard (tulkilik ishi)". Ayyorlik qilmoq.

"Faire la querre en renard (tulki ovini qilish)". Harbiy hiyladan foydalanish.

"Vendre la poule au renard (tovuqni tulkiga qoldirish)". Qo'yni bo'riga ishonmoq.

Bu maydonga kiruvchi frazeologik birliklarning ajratib olinishi yana kichik maydonlarga bo'lib o'rganish ularning pragmatik potensialidan va ushbu pragmatikning dunyo lingvistik manzarasida keng kongitiv paradigmasidan dalolat beradi⁴⁵. Turli lingvomadaniyatlar orasidan hayvon nomlari ma'nosini ifodalovchi frazeologik birliklarning o'rganilishi nafaqat frazeologizmlar yasalishidagi tizimli munosabatlarni aniqlab beradi, balki dunyoqarashning o'ziga xosligini umumiyligi hamda milliy o'ziga xoslikni ham ochib beradi.

Keltirilgan misollar ba'zi fransuz va o'zbek tillaridagi frazeologik birliklar yasalishidagi o'ziga xoslik va ularning xalqaro madaniy muloqotga kirishini ham tasvirlaydi⁴⁶.

Ko'rsatilgan frazeologik birliklar tarkibiga kiruvchi leksik komponentlarda fransuz va o'zbek tillarining hayot tarzi haqida juda ko'p ma'lumotlar bor. Chunki zoofrazeologizmlarda milliy dunyo qarashni anglatuvchi bu narsa ko'p uchraydi.

⁴⁵ А. Г. Назарян Фразеология современного французского языка, Москва " Высшая школа" 1987.

⁴⁶ Исмоилов Ғ. Зоокомпонентли фразеологик бирликларнинг этномаданий хусусиятлари // Ўзбек тилшунослигининг долзарб масалалари. №7. –Тошкент: 2013.

O'zbekcha va inglizcha zoofrazeologizmlar

Ikki tilli frazeologizmlarning bir paytning o'zida mazkur tillarning lug'at boyligini solishtirishda ham qo'llaniladi. Ushbu qismda men hayvon nomlari bilan bog'liq iboralarni inglizcha va o'zbekcha muqobil ko'rsatib o'tdim.

Bular:

Cat. Mushuk

- "Blind cat (ko'r mushuk)". Ko'zi ochilmagan mushukcha.
- "Old cat (qari mushuk)". Eski tulki.
- "Nervous cat (asabiy mushuk)". Quturgan it.
- "Cat like (mushukday yurish)". Ohista qadam tashlash.
- "Cat-nap (mushuk uyqu)". Qush uyqu (o'tirgan joyda).
- "Cat's-pauv (mushugi bo'lish)". Birovning qo'lida o'yinchoq bo'lish.
- "Cat-sleep (mushukday yotish)". Uyg'onib-uyg'onib uxlash.

Dog. It

- "Yellow dog (sariq it)". Ko'ziga yaxshi ko'rinmoq.
- "Dull dog (bemani it)". Itday akillamoq, behuda gapirish.
- "Lame dog (oqsoq it)". Itning orqa oyog'i bo'lish, sustkashlik.
- "Tired dog (charchagan it)". Itday charchash.
- "Dog in-the manger (na itga, na oxurga)". Na o'ziga qiladi, na birovga.
- "Dog-hole (it xonasi)". Kichik yoki tor hujra.
- "Dog-poor (kambag'al it)". Gadoy, tilanchi.
- "Dog-latin". Aynigan lotin iti.
- "Dog-lead (itning arqoni)". Birovni yetaklamoq.
- "Dog-sick (it g'ingshishi)". O'zini noxush his qilish.
- "Dog-sleep (itday yotish)". Hushyor, sezgir uyquda bo'lish.
- "Dog's meat (it jismi)". Itni o'ligiday bo'lish.
- "Dog tooth (it tish)". Qoziq tish, so'yloq tish
- "Dog trot (it yugurish)". Itday yugurish

Bear. Ayiq

- "Whitw bear (oq ayiq)". Yaxshi odam.

Bear. Ayiq soʻzi ham qoʻpol tarbiyasiz odamga nisbatan koʻchma maʼnoda qoʻllaniladi⁴⁷.

"Bear to a child (ayiqday kutish)". Chidamoq, sabrli boʻlmoq.

"Bear to down (ayiqday pastlamoq)". Yengmoq, yengib chiqmoq.

"Bear to witness (Ayiqday turish)". Kafil boʻlmoq.

Monkey. Maymun

"White Monkey (oq maymun)". Alohida boshqacha boʻlish.

"Agile monkey (harakatchan maymun)". Hazilkash, oʻyingaroq boʻlish

Bundan tashqari hayvon nomi bilan odamlarni atash mumkin.

Masalan, "Lamb" -qoʻzichoq soʻzi orqali sodda odamlarga aytilsa, "Quite lamb" (yuvvosh qoʻzi)-Goʻl, laqma kishini ifodalaydi.

Yana "Camel"-tuya sabrli kuchli insonga nisbat berilsa, baʼzan uzun kishilarni ham tuya deyishadi.

Yoki "Dumb fish (gung baliq)" -Aqlli, oʻta dono kishilarni bildiradi.

"Greedy wolf (ochkoʻz boʻri)" -Och boʻriday tashlanmoq iborasiga teng

"Proud peacock (magʻrur tovus)"-Gʻururli tarish, kekkayish holatida ishlatiladi.

"Old fox (qari tulki)" -Tajribali, ustasi farang odamlarga qoʻllaniladigan ibora.

"Goat"- echki, bu nom bilan tentak, ahmoq kishilarga shu soʻz ishlatiladi, yoki "Goatee"-echki soqol soʻzi erkaklarga oʻxshatish boʻladi.

Ingliz tilining lugʻat qatlamida kangaroo, panda, grizzly, hippopotamus, giraffe, calibri va shu kabi soʻzlarning inglizcha ifodasini izlash befoydadir. Chunki mazkur soʻzlarni ifodalab kelgan denotatlar ingliz (Buyuk Britaniyadagi inglizlar nazarda tutilmoqda) xalqning hayoti, madaniyati va turmush tarzida hech qanday ahamiyatga ega emas.

Shuning uchun ham ingliz tili bu soʻzlarning sof inglizcha ifodasiga hech qanday ehtiyoj sezmaydi.

⁴⁷ Haydarov A., Choriyeva Z. Ingliz tilida fraze birliklarning semantik-grammatik va uslubiy psixologik. Tilning leksik-semantik tizimi va qiyosiy tipologik izlanishlar: baholash, dioxroniya materiallari toʻplami. - T.: Muharrir. 2012. -B.8-10. 6. Haydarov A., Jo_raqulova G

Ingliz tilida ham hayvon nomlari giponomik tarzda qoʻllanadi. Masalan, tarjima lugʻatlarida "Ot" maʼnosini bildiruvchi faqat bir soʻz-"Horse" beriladi, ammo ingliz tilidagi bu soʻzning sinonimlari, aniqrogʻi, "Horse" soʻzi bilan giperonomik munosabatni hosil qilgan soʻzlar koʻpincha lugʻatlardan joy olmaydi. Chunonchi, "Horse"- bu tushunchani ifodalovchi ot, umumiy, neytral, invariant soʻz sifatida kelsa, "Gelding" soʻzi erkak ot, yoki aygʻir maʼnosini bildiradi. "Stallion" esa toychoq, qulun maʼnosini beradi, "Mare"-urgʻochi ot, baytal.

Demak, umumisteʼmoldagi zoonimlarni oʻrganish frazeologik maʼnolarni farqlash muhim oʻrin tutadi⁴⁸. Ingliz tilida zoonimlarni tarkibiga koʻra quyidagi guruhlarga ajratish mumkin.

1) Soda-bir soʻz shaklidagi zoonimlar:

Dog, cat, mouse, rat

2) Murakkab zoonimlar, yaʼni qoʻshma soʻz tipidagi zoonimlar:

Starfish, swordfish, rattlesnake, hippotamus, peacock

3) Tarkibli soʻz birikmasi tipidagi zoonimlar: polar bear, white

monkey, old fox, lame dog

Zoonimik komponentli frazeologik birliklar tarkibiga kiruvchi soʻz birikmasi tuzilishidagi zoonimlar oʻzining tarkibiga koʻra murakkab zoonimlar bu tipdagi hayvon nomlarining ayrimlari frazeologik birlik tarkibida ishlatilishidan tashqari, ilmiy atamalar sirasiga barn kiradi. Masalan: polaf bear, grizzly bear.

Ingliz tilidagi zoonimli komponentli frazeologik birliklar tarkibiga kiruvchi zoonimlarning katta qismini asosan birinchi zoonimlari tashkil qiladi. Sodda soʻz shaklidagi zoonimlar tilda turli aniqlovchi soʻzlar birikkan holda har xil maʼnolarni ifodalashda keng ishlatiladi. Soʻzning strukturasi jihatidan soddaligi uning funksional jihatdan faol va valentlik jihatdan birikish qobiliyati koʻp boʻlishini taʼminlaydi va undagi ekspressivlik yaʼni zoonimik komponentli frazeologik birliklarning paydo boʻlishiga olib keladi.

⁴⁸ Safaraliev, Bozor professor; Bakiyeva, Gulandom professor; va Nasrullaeva, professor Nafisa (2020) —INGLIZ VA O_ZBEK IDIOMATIK iboralarni tekshirishning LINGVOULTURAL ASPEKTTII, Filologiya masalalari: jild. 2020: Iss.

Ingliz tilidagi zoonimik komponentli frazeologik birliklar tarkibidagi zoonimlarni chuqur o'rganish natijasida, ayni bir jinsga mansub hayvon turlarining nomlarini ifodalovchi so'zlar hayvonlarning rang-tusidagi turli-tumanlik, har-xil jismoniy belgilari, yoshi va o'sish darajasidagi farqi, yetilgan hamda yetilmaganligi, jinsi hamda boshqa turli xususiyatlarini ham anglatadi va maxsus leksik paradigmalarni hosil qiladi.

Xalqning til boyligi-uning bo'yoqdor serjilo leksikasining, frazeologiya qatlamining boyligi bilan ham o'lchanadi.

Ingliz tilidagi frazeologizmlarda zoonimlar va ularning inson fe'l-atvoriga muqoyasasi hayvonlarning nomlanishi (zoonimlar) dunyodagi barcha tillarning so'z boyligining tarixiy va etnik qatlamiga mansub.

Kishilar xis tuyg'ularini, axloq-odobini, tashqi ko'rinishini, xolatini jonzotlarga o'xshatish va taqqoslash yo'llari bilan tasvirlab berishadi.

Frazeologizmning ichki mazmuni shundan iboratki, turli-tuman odamlarning hayot va karakterlarini yoritib beradi. Yaxshilik va yomonlikni muvaffaqiyat yoki omadsizlikni, ularni hayotiy taassurotlari va xis tuyg'ularini, maqullash, maqullamaslik, do'stona munosabatlar, dushmanlik, urush janjallar, odamlar o'rtasidagi raqobat, makkorlik, hukm qilish, jazo tayinlash.

Olib borilgan tadqiqot natijalariga ko'ra, hayvon nomlari bilan kelgan frazeologik birliklarning o'ziga xosligi, emotsionallikni ifodalashiga ko'ra quyidagilarni kuzatish mumkm:

1. Jahlni va yomon kayfiyatni ifodalovchi frazeologik birliklar- behave like a bear-jahli chiqish; have bats in the belfry-qahr bilan muomalada bo'lish, like a red flag to a bull-g'azablanish. Bear with a sore head-yomon kayfiyatda bo'lish. Masalan:

Don't mention Tom's promotion to Mike, it would be like a red flag to a bull.

2. Omadsizlik va tushkunlikni belgilovchi frazeologik birliklar-Go to the dog – Ilgarigi foyda va omadga ega bo'lmaslik; help a lame dog over stile-

qiynalish: antsinone's pants-noxush vaziyatdan xavotirlanish; get(someone's)goat-biror nimadan xafa bo'lmoq. Masalan:

I wish he'd relax, he's got ant's in his pants about something today.

3. Baxtilik va yuqori kayfiyatni anglatuvchi frazeologik birliklar -like a dog with two tails-o'ta xursand bo'lish, top dog-boshqalarga qaraganda ustunlikka ega bo'lish; love me,love my dog-birorkimni kamchiliklariga qaramasdan sevish; grinlike Cheshire cat biror narsadan qoniqib shaqshayib kulish, ko'ngli to'lish.

Masalan: I knew she had succeeded when I saw her with a grin like a Cheshire cat.

4. Biror ishni tezlik va omadli nihoyasiga yetkazish: in two shakes of a lambs tail - juda tez amalga oshgan ish; like a bat out of hell-katta kuch va yuqori sur'atda amalga oshgan harakat; go whole dog-biror maqsadni iloji boricha omadli tugatish. Masalan: Iran like a bat out of hell to catch the bus.

5.Qo'rquv va xavotirni aks etuvchi frazeologik birliklar -as nervous as a cat-o'ta xavotirlanishga; As a rabbit-qo'rqish; call the dog soff -qo'rqitishni to'xtatish; have a whale of a time-xavotirli onni boshdan kechirish. Masalan: We had a whale of time at theparty.

6. Aqllilik va odobni ifodalovchi frazeologik birliklar -as gentle as alamb-o'ta yumshoq; as quiet as a mouse – juda sokin xususiyat: as sly as a fox-dono, ishbilarmon; a cat in gloves catches no mice o'ta odobli va mehribon bo'lish ham yaramaydi. Masalan: If you are too careful and polite you may not get what you want.

7. Uyatni bildiruvchi frazeologik birliklar – cats get one's tongue-uyalgandan gapira olmaslik; chickens

Come home to roost- kimnidir ilgari qilgan uyatli va yomon harakati boshqalarga muammo olib kelish; the black ship of the family-oilaning sharmandalan a'zolaridan biri.

8.Tentaklikni aks etuvchi frazeologik birliklar -a dumb bunny-tentak;make a monkey out of(someone)-biror kimni tentak qilib ko'rsatish; play cat and mouse

with-biror kimni ahmoq qilish. Masalan: The man is playing cat and mouse with his company about his plans to quit or not.

9. Kasallik va jismoniy charchoqni bildiruvchi frazeologik birliklar -as sick as adog-og'ir kasal bo'lish, as weak as a kitten-nimjon, kasalmand bo'lish.

Frazeologik birliklarning so'zlardan asosiy farqi, ular ob'yektiv reallikni, ma'lum voqea-hodisani nomlash uchun emas, balki unga nisbatan modal munosabatni ifodalash maqsadida yuzaga keladi. Tildagi frazeologik birliklarning asosiy qismi ma'no jihatdan insonga qaratilgan, ular kishining biror jismoniy, ruhiy, aqliy-intelektual xususiyatini, hatti-harakatini ifodalaydi. Shu sababli, frazeologik birliklarning ma'no tarkibida ko'pincha, konnotativ element ishtirok etadi. Bu element frazeologik birliklarning denotative ma'nosiga emotsional ekspressiv bo'yoqdorlik yuklaydi.

Frazeologik birliklar dagi emotsionallik ularning turli xil his-tuyg'ulari, shaxs-predmetlarga nisbatan sub'yektiv munosabatlarini ifodalash bilan bog'liqdir. Frazeologik birliklardagi emotsionallik bir vaqtning o'zida ikki ma'noning reallashuvi va obrazlilik natijasida yuzaga chiqadi [Salimova 2015, 214-215].

Bu nuqtai nazarni 144 ta iboralarni o'rganishga oid zoonimli biikmalar bilan (so'z birikmalari va muloqot iboralarini o'rganishga oid birliklar) orqali tahlil qilib chiqdik. Ularni biz ushbu ko'rinishda tahlil qilib chiqdik (tartib bilan)

1. Ehtiyotlik va ehtiyotkorlik – 39 iboralarni o'rganishga oid birliklar (27.1%)

Masalan:

- **Dumb dogs are dangerous** – Tilsiz itlar havflidir;
- **It is ill to waken sleeping dogs** – Uxlab yotgan kuchukni uyg'otib bo'lmaydi;
- **The scalded cat fears cold water** – Hurkak mushuk sovuq suvdan ham hurkanadi.

2. Hayotiy tajriba – 26 iboralarni o'rganishga oid birliklar (18%)

Masalan:

- **A good dog deserves a good bone** – Yaxshi kuchuk yaxshi suyakka loyiq;

- **If two men ride on a horse, one must sit behind** – Bir otini ikki odam minsa biri orqada o‘tirishga majbur;

- **It is too late to lock the stable when the horse has been stolen** – Oting o‘g‘irlangandan keyin otixonaga qulf osishga xojat yo‘q.

- **The old cow thinks she was never a calf** – Qari sigir hech qachon buzoq bo‘lmaganman deb o‘ylaydi;

- **An old dog will learn on new tricks** – Qari kuchuk yangi tryklarni (hunar, harakat) o‘rgatadi;

- **A living dog is better than a dead lion** – O‘ligidan ko‘ra tirigi afzal.

- **Better be head of a dog than the tail of a lion** – Arslonning dumi bo‘lgandan ko‘ra itning boshi bo‘lgani yaxshi;

3. Mehnatsevarlik – 7 iboralarni o‘rganishga oid birliklar (4.9%)

Masalan:

- **The dog that trots about finds a bone** – Izlangan (mehnat qilgan) kuchuk suyak topar;

- **All lay loads on a willing horse** - Barcha yuk halol otning yelkasida;

4. Shaxsiy fikrlar va hayotiy qarashlar 7 iboralarni o‘rganishga oid birliklar (4.9%)

Masalan:

- **Pigs might fly if they had wings** – Cho‘chqalaram uchgan bo‘lardi agar qanotlari bo‘lganida;

- **If you sell a cow, you will sell the milk too** – Agar sigiringni sotsang sutiniyam qo‘shib sot.

5. Ochko‘zlik – 6 iboralarni o‘rganishga oid birliklar (4.2%)

Masalan:

- **A dog in the manger** – Kuchuk oxurda

- **Dogs that put up many hares kill none** – Kuchuklar ko‘p quyonlarni quvlaydi lekin yetolmaydi;

6. Axmoqlik – 5 iboralarni o‘rganishga oid birliklar (3.5%)

Masalan:

- **If the ass bray at you, don't bray at him** – Agar senga eshshak hangrasa san unga eshshakdek hangrama.

7. Kollektivlashtirish – 4 iboralarni o'rganishga oid birliklar (2.8%)

Masalan:

- **One barking dog sets the whole street barking** – Yomon qo'y podani buzar.

8. Qaysarlik – 4 barqaror iboralarga oid birikmalar (2.8%)

Masalan:

- **To flog a dead horse** – O'lgan otni savalash

9. Surbetlik – 4 barqaror iboralarga oid birikmalar (2.8%)

Masalan:

- **All lay loads on a willing horse** – Barcha yuk halol otning yelkasiga yuklash;

- **What you can expect from a hog but a grunt** – Cho'chqadan xurullashdan boshqa yana nimani kutasan.

10. Beparvolik – 4 barqaror iboralarga oid birikmalar (2.8%)

Masalan:

- **Never buy a pig in a poke** – Molni kechasi sotib olma.

Ingliz etnik mentaliteti uchun ustun bo'lgan xarakter xususiyatlari ehtiyotkorlik va ogohlik hisoblanadi. Ikkinchi o'rinda hayotiy malaka, uchinchi navbatda – mehnatkashlik turadi. Eng kam ko'rsatkichga ega bo'lgani tavakkalchilikni, sinchkovlik va har narsaga qiziquvchanlikni ifodalovchi zoonim frazeologik birikmalari tashkil qiladi.

Olib borilgan izlanishlar ingliz xarakterining o'ziga xosligini aks ettiradi. Shuni alohida ta'kidlash joizki, biz faqat hayvonlar bilan bog'liq bo'lgan frazeologik birikmalar – zoonimlarga e'tibor bergan holda tasniflanish olib bordik. Berilgan klassifikatsiya umumiy xarakterga ega. Shuningdek, ba'zi bir frazeologik birikmalar ko'p ma'noga egadir va o'z navbatida ular insonning bir necha xususiyatlarini aks ettirishi mumkin.

Masalan:

One barking dog sets the whole street barking. Yomon qo‘y podani buzar. Frazologizmga mos kelsada, ba‘zan bu ibora o‘z ketidan jamoani ergashtira oladigan liderlik qobiliyatiga ega kishilarga nisbatan ham qo‘llanishi mumkin.

Berilgan ushbu frazeologizmga jamoaviylikni ifodalovchi va hayotiy tajribaga oid xususiyatlar aks etadi.

a) *All lay loads on a willing horse.*

Mehnatkashlik va surbetlikni ifodalaydi.

b) *When the fox preaches, take care of your geese*

Ehtiyotkorlik, hayotiy tajriba, beg‘amchilik kabi xususiyatlarni ifodalaydi.

c) *The wolf may change his coat, but not his disposition.*

Yakkalik, o‘ziga xoslik va eskilik tarafdori (konservativlik) kabi xususiyatlarni ifodalaydi.

d) *A good dog deserves a good bone* frazeologizmi hayotiy tajriba va tolerantlik kabi xususiyatlarni ifodalaydi.

e) *Do not spura willing horse* frazeologizmi esa mehnatkashlik va surbetlik kabi xususiyatlarni ifodalaydi.

Yuqorida ko‘rib o‘tilgan uch bosqichili ya‘ni umumiy, qiyosiy va tasniflash tahlillaridan so‘ng ba‘zi zoonimlarning frazeologizmlar tarkibida ko‘p ba‘zilarning kam qo‘llanganligiga quvoh bo‘ldik:

Bundan ko‘rinadiki aksariyat frazeologizmlarni o‘z ichiga oluvchi leksemalar it, ot, mushuk va yana maqollarda taqdim etilgan keyingi uy hayvonlar:

Sigir / buqa (144 dan 13, 8.8%)

Cho‘chqalar (144 dan 10, 6.8%)

Qo‘ylar (144 dan, 10, 4.1 %)

Eshshak (144 dan 6, 4.1%)

Hamda yovvoyi hayvonlari

Tulki (144dan 6, 4.1%)

Bo‘ri (144 dan, 7, 4.8%)

Sher (144 dan, 3, 0.7%)

Qoplun (144 dan, 1, 0.7%)

Quyonglar (144 dan, 4, 3.4%) tashkil etishadi.

Hulosa oʻrnida shuni aytish joizki, ingliz tilidagi frazeologik birliklarda uch asosiy zoonim koʻproq ishlatiladi. It, ot va mushuk zoonimlarining frazeologik birliklarda asosan ijobiy maʼnoda qoʻllanganligiga guvoh boʻlamiz. Ingliz tilida zoonim frazeologizmlar bevosita inson faoliyatida, uning emotsional-ruhiy olamini ifodalash uchun, shungdek oʻziga xos emotsional semani ham mujassamlashtirib kelishi mumkin.

Oʻzbek va nemis tilidagi zoofrazeologizmlar qiyosiy tahlili

Turli tillarda gapiruvchi xalqlarda shakl va mazmun jihatdan bir-biriga juda oʻxshash, bir-biriga mos tushadigan frazeologik iboralar uchraydi. Masalan, Nemis tilida ham, oʻzbek tilida ham qoʻllanadigan iboralar.

"Wie Hund and Katze Zusammen leben"- It mushuk boʻlib yashash;

"Ay den Hund kommen" – It kunini koʻrmoq iborasiga teng keladi⁴⁹

Shu misralarning oʻzi 100 dan ortiq tilda qoʻllanishi lugʻatlarda qayd etilgan.

Nemischa oʻzbekcha iboralarda mos tushmaydigan holatlar ham bor shu sababli baʼzi iboralarni soʻzma-soʻz tarjimasini qavs ichida berib oʻzbekcha muqobilini yozdik. Masalan toʻsatdan-qoʻqqisdan degan maʼnoni ifodalashda oʻzbek tilida "tomdan tarasha tushgandek" deb aytilsa nemis tilida esa, bu shunday boʻladi.

"Sich benehmen wie ein Elefant im Porzellan laden" (Fil daraxtdan yiqilganday). Tomdan tarasha tushganday.

Nemis va oʻzbek tillaridagi geografik joylashuvha xos boʻlgan frazeologizmlar juda koʻp va xilma-xildir.

Masalan, oʻzbek tilidagi quyidagi frazeologizmlarni koʻrib chiqaylik:
"Suvdan oʻtguncha eshakni amaki demoq";

"Itday charchamoq";

"Eshakday ishlamoq".

Nemis tilida ham xuddi shunday frazeologizmlardan misol keltirish mumkin. Nemis xalqi ham boshqa xalqlar singari oʻrmon chekkalarida daryo boʻylarida

⁴⁹ J. Butayev "Nemischa-ruscha-oʻzbekcha frazeologik lugʻat" Toshkent -1994

yashab kun kechirish uchun ovchilik, mashoqchilik bilan shug‘ullangan. Shu tufayli bo‘lsa kerak nemis iboralarida ham o‘rmonga aloqador bo‘lgan hayvon nomlari ham uchraydi. Uy hayvonlariga taalluqli bo‘lgan iboralar nemis tilida ham o‘zbek tilida ham qo‘llanadi. Masalan:

"Jo‘jani kuzda sanamoq", "It hurar karvon o‘tar", "Ayrilganni ayiq yer".

1. Man soil den Tag vor dem Abend loben
2. Das rind kleine Fische
3. Das ist eder Fisch noch Fleisch

Har ikkala tilda ba’zi frazeologizmlarda ozroq farq bo‘lib ular albatta har bir xalqning turmushiga oid nomlar bilan bog‘liqdir. O‘zbek frazeologizmlarida eshak (esel) ot (pferd), tuya (camel), sichqon (mause), fil (elefant), qo‘y (schaf), cho‘chqa (schwein), ilon (schlange), it (hund), tulki (fuchs), quyon (hase), bo‘ri (wolf), sigir (kuh) va boshqa nomlar ko‘proq uchraydi. Masalan: o‘zbek tilida "Otdan tushsa ham egardan tushmaydi";

"It g‘ajigan suyakdek";

"It yotish mirza turish";

"Bedana yurish qilmoq";

"Suv bossa to‘pig‘iga chiqmoq";

"Tulkidek ayyor, so‘rib gar";

"Musicha-yu bezalal";

"Ilonning yog‘ini yalagan";

"Itdek g‘ingshimoq";

"Itdek vafodor";

"Chayondek zahar";

"Cho‘chqadek iflos":

"Qo‘ydek yuvosh" kabi misollar nemis tiliga kiritiladi. Frazeologik iboralar tarkibidagi ko‘pgina hayvon nomlari odamlardagi ba’zi ijobiy va salbiy xislatlarini ifoda etish uchun xizmat qiladi. Ko‘pgina frazeologizmlar odamlarning hayvonlar, qushlar, baliqlarning xatti-harakatini kuzatishlari natijasida paydo bo‘ladi.

Bular quyidagilar⁵⁰:

"Einen Baren aufbinden (Ayiqni bog‘lab ketmoq)" - Boplab ketmoq, dog‘da qoldirmoq.

"Das sind kleine Fische (To‘rdagi kichkina baliq)" - Mayda-mayda, ikir-chikir;

"Das ist weder Fisch noch Fleisch (na go‘sh t bo‘ldi, na baliq)" - Na don, na somon;

"Mit den Huhnern zu Bett gehen (Tovuq bilan bir vaqtda uyquga ketish)" - Xo‘roz qichqirmay yotib olmoq;

"Auf den Hund kommen (it kuni bo‘lmoq)" - Tanazzulga yuz tutmoq;

"Wie Hund and Katze Zusammen liben" - It mushuk bo‘lib yashamoq;

"Wie die Katze umden heiben Brei (Mushukka o‘xshab issiq olovni chetlab o‘tmoq)" - Qaltis masalani chetlab o‘tmoq;

"Es war fur die Katze (mushuk uchun bo‘lgan)" - E‘tiborga arzimaydigan behuda narsa.

"Arbeitet wie ein Pferd (otday ishlamoq)" - Eshakday ishlamoq;

"Das schwarze Schuf sein (qora qo‘y bo‘lish)" - Suhbatdan chetda qolmoq, ola qarg‘aday;

"Schlange stehen (ilonday turish)" - Navbatda turish;

"Im gansemarsch gehen (g‘oz qator bo‘lib borish)" - Turnaqator bo‘lib yurish

"Hahn im Korb sein (savatda xo‘roz bo‘lish)" - Xotinlarni xolasi;

"Mein Name ist Hase (mening ismim quyon)" - Men quyon bo‘lganman, hech narsadan habarim yo‘q;

"Da liegt der Hund begroben (it mana qayerga ko‘milgan)" - Mana gap qayerda!

"Damit locht man keinen Hund von Ofen (bu bilan itni tuzoqqa tushirib bo‘lmaydi)" - Bu hech kimni havasini keltira olmaydi;

"Die Katze im Sack kaufen (mushukni qop ichida sotib olish)" - Ko‘rmasdan noma‘lum narsani sotib olmoq.

⁵⁰ Friedrich.W "Moderne Deutsche Odiomatik" Max Hueber Verlag Munchen-1966

"Die Katze aus dem Sack lassen (mushukni qopdan chiqarib yubormoq)" -
Sirni oshkor qilmoq;

"Das stehen wie die Kuh vom neuen Tor (sigir yangi davra oldida turganday turib qolish)" - To'nkaday qotib turmoq;

"Das geht auf keine Kuhhaut (bu hech qanday sigir terisiga ketmaydi)" -
ta'riflab bo'lmaydi;

"Sich den Lohnteil nehmen (sherning ulushini o'ziga olish)" - O'z-o'ziga o'zlashtirib olmoq;

"Mit ihm kann man Pferde stehen (ot qoldirsa bo'ladi)" - Ishongan bog'i, suyangan tog'i;

"Schwein haben (cho'chqasi bor bo'lish)" - Omadi kelmoq;

"Ein hohes, grobes, wichtiges Tier (Baland, katta, muhim hayvon)" -
katta mansabdagi odam;

"Den Vogel abschieben (qushni otish, urish)" - Katta muvaffaqiyatga erishmoq;

"Linen Vogel haben (bir qushi bor bo'lish)" - G'alati bo'lish.

Xulosa qilib aytsam frazeologizmlar nemis va o'zbek xalqining, tarixi, madaniyatini rasm-rusum, urf-odat, uning geografik joylashuviga xos bo'lgan milliy xususiyatlarni har tomonlama aks ettiradi.

III bobga doir xulosalar

Hayvonlarni anglatuvchi zoofrazeologizmlar semantik jihatdan insonlarning fe'l- atvori tushunchasini bildiruvchi eng muhim hisoblangan kategoriyalar sirasiga kiradi va insonning ijtimoiy tarixiy va axloqiy tajribalarini, holatini aks ettiradi. Bu esa ko'pgina ilmiy tadqiqotlar obyekti bo'lib xizmat qiladi. Tilshunoslikda asosan frazeologiyada lingvistik va ekstralingvistik omillarning o'zaro harakatga kirishishi natijasida hosil bo'ladi.

Ushbu bobda ularni qiyoslash; o'zbek, ingliz, nemis va fransuz tillarida qo'llanuvchi zoofrazeologizmlarni to'plash va ilmiy asosda tahlil etish quyidagi xulosalarga kelish imkonini beradi.

1) Zoonimlarni mavzuyi guruhlarga ajratib tadqiq etish ularda yuz bergan semantik-funksional hodisani ochishda eng qulay usul ekanligini yana bir bor isbotladi.

2) Zoologik iboralar ham tilning boshqa qatlamlari kabi xalqning ijtimoiy-iqtisodiy hayoti, madaniy-ma'naviy taraqqiyoti bilan bog'liq holda rivojlangan, o'zgarigan va boyigan.

3) Zoofrazeologizmlar tarkibining genetik nuqtai-nazardan tahlil qilinishi uning asosini xalqning boy tajribasidan kelib chiqishi ko'rsatildi.

4) Qiyosiy- statistik tahlil natijalari shuni ko'rsatmoqda, zoonimlar o'zbek yoxud boshqa tilda ham ayni variantda yoki muqobil sifatida lug'atlarda aks ettiriladi.

5) Zoologik iboralar tizimining shakllanishi va rivojlanishi muayyan vaqtda o'zgarishga uchragan yoki yangi iboralar tarkibida qo'llanilmoqda.

6) Hayvon nomlari bilan bog'liq bo'lgan frazeologizmlarning vujudga kelishida turli xil leksik komponentlar yordamga keladi, ammo u yoki bu tilda qandaydir bir iboraning yasashida ular bir xil emasdir.

7) Bizning frazeologik material ustida olib borgan tadqiqotimiz turli xil til manzaralarida ba'zi iboralarning milliy madaniy asoslanganligini ko'rsatadi.

8) Frazeologizmlarning yasashida etnomadaniy omillarning tahlili, iboralarning funksional semantik harakteristikasida muhim o'rin tutadi. Shu jihatlardan frazeologik birliklarning ajratilib olinishi yana kichik maydonlarga bo'lib o'rganish ularning pragmatik potensialidan va ushbu fragmentning dunyo lingvistik manzarasida keng kongnitiv paradigmasidan dalolat beradi.

Til birliklarining lingvokulturologik tadqiqi jarayonida va natijasida ularning mohiyati to'laroq ochiladi, amaliy ahamiyati oshib boradi. Frazeologik birliklar u yoki bu xalqning ma'naviy qadriyatlarini, milliy tafakkuri, hayot tarzi hamda urf-odatlarini namoyon etadigan til hodisasidir.

Til va madaniyat munosabatini olamning lisoniy manzarasi nuqtai nazaridan o'rganish, milliy mentallikni anglash masalalarini tahlil qilish ham tilshunoslik uchun nazariy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

Xulosa qilib aytganda, har bir til o'z doirasidagi so'zlarni o'rnida qo'llash, ma'no kengayish usullarini o'rganish, o'ziga xos bo'lgan xususiyatlarini dunyoning tildagi ko'rinishi orqali aks ettirishda muhim rol o'ynaydi. Inson qiyofasi va xarakterini ifodalash har bir tilda ko'rilganda, shu til vakillarining dunyoqarashi, mentalitetidan kelib chiqqan holda beriladi.

UMUMIY XULOSA

Har bir tilning frazeologik qatlami o'sha til egasi bo'lmish xalqning urf-odatlari-yu turmushini, dunyo qarashini aks ettiradi. Bundan tashqari, obrazli, mazmundor, ta'sirchan va bo'yoqdor iboralar nutqimiz ko'rki, tilimizning boyligidir.

Hammaga ma'lumki, inson hayotida hayvonlarning muhim ahamiyatga ega ekanligi tilimizda namoyon bo'ladi. Leksikada hayvonlarning nomini – zoonimlarni qo'llash barcha dunyo tillarida mavjud bo'lgan. Inson o'zining harakatini, hissiyotini, holatini, tashqi ko'rinishini ifoda etishda o'ziga yaqin va o'xshash bo'lgan hayvonot dunyosidan foydalangan.

Shuning uchun zoonim komponentli frazeologik birliklarni tahlil qilish va ingliz tilida qo'llaniladigan zoonimlarni xususiyatlari bo'yicha tasniflash, uning asosiy belgilari aniqlash hamda ingliz tilidagi zoonimli frazeologik birliklarni o'zbek tiliga tarjima qilinish yo'llarini aniqlash muhim ahamiyatga egadir. Chunki aynan frazeologizmlar bizga noma'lum madaniyat egalari va madaniy-etnik kolorit haqida axborot beruvchi manba hisoblanadi.

Magistrlik dissertatsiyasini yozish mobaynida biz frazeologiyaning alohida soha sifatida rivojlanishida bir qancha tilshunos olimlar, jumladan, A.A.Potebni, A.A.Shaxmatov, F.F.Fortunatov, Y.D.Polivanov, S.I.Abakumov, V.V.Vinogradov, V.L.Arxangelskiy, N.N.Amosova, V.P.Jukov, A.V.Kunin, M.T.Tagiyev, M.M.Kopilenko, Z.D.Popovlar va o'zbek tilshunosligida Sh.Raxmatullayev, Y.Pinxasov, M.Husainov, I.Qo'chqortoyev, B.Yo'ldoshevlarning katta hissa qo'shganligiga guvoh bo'ldik.

Frazeologiyani o'ziga xosligi va xususiyatlarini kengroq o'rganish uchun ushbu tilshunoslarning asarlaridagi misollardan va izohlardan foydalandik.

Olib borilgan izlanishlar natijasida hozirgi kunga kelib frazeologiya sohasi tilshunoslikda dolzarb, muhim masalalardan biri hisoblanib, bu borada ko'pgina tilshunos olimlar tomonidan tadqiqot ishlari olib borilganligini va olib borilayotganligini aniqladik.

Demak, frazeologiyani o'rganish, turg'un birliklarni o'zlashtirish turli tillarni tushunish uchun juda muhim. Frazeologiyada xalqlarning tarixi, madaniyati, turmush tarzi namoyon bo'ladi. Frazeologik birliklarni tushunmasdan, turli millat xalqlari o'rtasida madaniyatlararo muloqot qilib bo'lmaydi. Shuningdek, frazeologik birliklarni yaxshi o'zlashtirish badiiy asarlarni o'qish jarayonida asarning mazmunini to'liq tushunishga, tarjima jarayonida matn mazmunini to'g'ri shakllantirishga yordam beradi. Frazeologizmlarni bir tildan ikkinchi tilga tarjima qilishda, uning tarkibidagi barcha komponentlar ham to'g'ridan-to'g'ri yoki so'zma-so'z tarjima qilinmaydi, chunki frazeologizmlarning ma'nosi ular tarkibidagi komponentlarning ma'nosiga bog'liq emas, ya'ni, frazeologizmlarning tarkibidagi komponentlar aksariyat hollarda ko'chma ma'noga ega. Shuning uchun bugungi kunda ham frazeologik muammolarga qiziqish ortib bormoqda va bu borada izlanishlar olib borilmoqda. Ma'lumki, it va mushuklar sevimli uy jonivorlari hisoblanib, har bir etnos lisoniy tasvirida it va mushuk antitetik leksik birlik sifatida frazeologik iboralarda, paremalarda polisemik maydonni hosil qiladi. Bu hayvonlar iboralarda o'z belgi va xususiyatlaridan uzoqlashib, nafaqat to'rt oyoqli sut emizuvchilar guruhini, balki boshqa sinfga kiruvchi konkret obyektlarni, hattoki insonlarni ifodalab keladi. Mushuk nafaqat ingliz, balki boshqa tillarda ham nihoyatda keng qo'llanuvchi zoonim hisoblanadi. Ispanshunos lingvist olimlar tomonidan leksik birliklarni tavsiflash jarayonida it va mushuk zoomorfizmlari — hayvonlar hosil qiladigan semantik sathda birinchi va ikkinchi o'rinni egallashini tadqiqot natijalarida ko'rsatib o'tganlar⁵¹. Bu shundan dalolat beradiki, kognitiv semantikada it va mushuk prototiplari nafaqat uy hayvonlari orasida, balki metaforalar va idiomalarda ifodalilik va stilistik bo'yoqdorliklari jihatidan ham butun hayvonot olami vakillaridan ustun bo'lib keladi [Rooth 1968, 286]. Ispan va boshqa xalqlar lisoniy tasvirida it va mushuk prototipining tadqiqotlarda ustunlikka erishishi, bizningcha, kishilarning bu jonivorlar bilan ming yillardan buyon yonma-yon yashab kelishidadir. Shu sababli

⁵¹ Baxronova D.K. Ispan tilida perro (it) va gato (mushuk) zoomorfizmlarining etnospesifik xususiyatlari. //BuxDu ilmiy axboroti. 2015. №3 (59). – B.92

kishilar canina (itsimonlar oilasi) va felina (mushuksimonlar oilasi)ga kiruvchi hayvonlar etologiyasini yaxshi o'zlashtirganliklari ma'lum. Bu esa ta'kidlab o'tilganidek, o'z navbatida, it va mushuk leksemalari keng qatnashgan konseptual domenga ega lingvistik maydonni tashkil qiladi. Haqiqatdan ham, zoomorfizmlar tadqiqoti ko'rsatadiki, it va mushuk kabi to'rt oyoqli sut emizuvchi uy jonivorlari va ma'lum bir xalq yashayotgan mamlakatning tabiiy sharoitida ko'p uchraydigan boshqa hayvonlar o'sha xalq tilida xarakterli tasvirlarni ko'proq hosil qiladi.

Demak, chet tillaridan badiiy tarjima jarayonida ikki til milliy madaniy xususiyatlarining hosilasi bo'lgan frazeologik xarakterdagi ibora, maqol, matal va idiomalar tarjimasiga yengil – yelpi qarab bo'lmaydi. Har bir frazeologik birlikdagi hissiy bo'yoqdorlikni oshirish maqsadida qo'llangan stilistik priyomlar tarjimon tomonidan o'rganilib mazkur frazeologizmning ma'noviy muqobili yoki so'zma-so'z tarjima qilinib gapda qo'llanishi lozim.

1. Frazeologizmning ichki mazmuni shundan iboratki, turli-tuman odamlarning hayot va xarakterlarini yoritib beradi.

2. Olib borilgan tadqiqot natijalariga ko'ra, hayvon nomlari bilan kelgan frazeologik birliklarning o'ziga xosligi, emotsionallikni ifodalashiga ko'ra jahl va yomon kayfiyatni, omad va tushkunlikni, baxtlilik va yuqori kayfiyatni, tezlik va omadli yakunni; qo'rquv va xavotirni anglatuvchi aqllilik va odobni, uyatni, tentaklikni; kasallik va jismoniy charchoqni bildiruvchi Frazeologik birliklar mavjudligi o'rganib chiqildi.

3. Etnik mentalitetning asosiy sifati fe'l – atvorning ehtiyotkorligi hisoblanadi. Ikkinchi o'rinda – hayotiy tajriba, uchinchi o'rinda mehnatsevarlik turadi. Eng asosini tashkil etadigan omillar bular – sinchkovlik, tavakkal qilish qobiliyatidir.

4. O'zbek tilidagi frazeologik birliklarda uch asosiy zoonim ko'proq ishlatiladi. It, ot va mushuk zoonimlarining frazeologik birliklarda asosan ijobiy ma'noda qo'llanganligiga guvoh bo'ldik. O'zbek tilida zoonim frazeologizmlar bevosita inson faoliyatida, uning emotsional-ruhiy olamini ifodalash uchun, shuningdek, o'ziga xos emotsional semani ham mujassamlashtirib kelishi mumkin.

5. Zoonim qatnashgan frazeologik birikmalarning jarangdorligi turli eyfonik vositalar asosida yuzaga chiqaziladi. Bu vositalar frazeologizmlarning jarangdorligi oshib, esda qoluvchan va qayroqi iboraga aylanishida xizmat qiladi. Har bir frazeologizm ma'lum xalq donoligi, mentaliteti va etnomadaniyati haqida darak beradi. Tarjima jarayonida ham frazeologizm ma'nosigagina emas, shu matni yaratishda qo'llangan stilistik vositalarga ham e'tibor qaratish lozim.

Xulosa qilib aytganda, har bir millatning tili asrlar davomida shakllangan o'ziga xos milliy an'analari hamda urf-odatlarini aks ettirib turuvchi boy lug'at tarkibiga ega. Biz bu tillarni qiyoslab o'rganar ekanmiz insonning xarakteri va holatini ifodalash har bir tilda mentalitetidan kelib chiqqan holda berilishini, ularning milliylik doirasidagi so'zlarini o'z o'rnida qo'llash, ma'no kengayish usullarini hamda o'ziga xos bo'lgan xususiyatlarini o'rganib boramiz. Ko'rib chiqilgan zooleksemalar har bir tilning matnlarida faol ishlatiladi va turli xil insoniy illatlarning timsoli sifatida xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Абдуллаева Л. Лескическая стилистика узбекской художественной литературы. – Ташкент. Фан, 1970. – 152 б.
2. Абдурахмонов Г. Ҳозирги ўзбек тили ҳақида. // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент: 1992. № 566. 28-36-б.
3. Абдурахмонов Ғ. Ёзма нутқ услубини яратувчи воситалар. // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1994. №3. 22-32-б.
4. Алиева Н.Ф. Слова повтор и их проблематика в языках Юго-Восточной Азии. // Языки Юго-Восточной Азии. – М.: 1980. 3,22 с.
5. Ахманова О.С. Словарь лингвистических терминов. – М.: Советская энциклопедия, 1969. – 312 с.
6. Вахронова Д.К. Ispan tilida perro (it) va gato (mushuk) zoomorfizmlarining etnospesifik xususiyatlari. // BuxDu ilmiy axboroti. 2015. №3 (59). 92 б.
7. Вилиман В.Г. Синоним и перифраз в сфере несвободных словочетаний. // Уч.зап. Ленинградского пединститута. 1969. – Вологда, 12-26 с.
8. Влахов С., Флорин С. Непереводимое в переводе. – М.: Международные отношения, 1980.
9. Вовчек Д.П. Экономическая, функция газетных метафорических перифраз. // Исследование по стилистике. 1974. № 4.225-с.
10. Волиф Е.М. Функциональная семантика оценка. – М.: Наука, 1985. – 288 с.
11. Гачечиладзе Г. Художественный перевод и литературные взаимосвязи. – М.: Советский писатель, 1980. – 255 с.
12. Голуб И.В. Стилистика современнога русского языка. – М.: Высшая школа, 1976. – 154 с.
13. Горелов И.Н. Невербальные компоненты коммуникации. – М.: Наука, 1989. – 240 с.
14. Григорев В.П. Поэтика слова. – М.: Наука, 1979. – 187 с.

15. Григорев В.П. К проблем перифразы. // Сб. докл и сообщений лингвистических обществ. Калинин., Из-во Калининского ун-та., 1974. 163 с.
16. Долилина Ю. Туркий тилларда жуфт ва такрорий сўзлар. // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1973. № 3. 47-50 б.
17. Жуманиёзов Р. Синонимлар тарифи масаласи. // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1970. №1. 41-42 б.
18. Иванникова Е.А. Синонимические отношения между фразеологическими единицами и словами. // Очерки по синонимике современного русского литературного языка. 1966. Наука, 68-95 б.
19. Исмоилов Ғ. Зоокомпонентли фразеологик бирликларнинг этномаданий хусусиятлари. // Ўзбек тилшунослигининг долзарб масалалари. –Тошкент: 2013. №7.
20. Кунин А.В. Курс фразеологии современного английского языка. – М.: Высшая школа, 1970.
21. Маматов А. Ўзбек тили фразеологияси (ўқув қўлланма). Тошкент, Наврўз нашриёти, 2019. 11 б.
22. Йўлдошев Б. Ўзбек фразеологияси ва фразеографияси масалалари. – Тошкент, 2013.
23. Маматов А.Э., Болтаева Б. Фразеологик бирликларнинг семантикпрагматик тадқиқи. Монография. – Тошкент: Наврўз, 2019.
24. Mamatov A.E. “English and Uzbek graduonymic phrasemes in hyponymy”. Монография. The language denotes the men and culture corporatively. LAMBERT Academic Publishing, 2019.
25. Маматов, А.Э. Очерки по французской фразеологической стилистике. – Ташкент: Изд. Укитувчи, 1989.
26. Маматов, А. Э. (2000). Ўзбек тили фразеологизмларининг шаклланиши масалалари. Фил.фан.док ... дисс. автореф. 2000.
27. Mahmudov N, Rahmonov N. “Urxun-Enisey yozuvi”. O‘zME, - Т.: 9, 2005. 131-132-б.

28. Телия В.Н. Что такое фразеология? – М.: Наука, 1966.
29. Худойбердиев Э. Адабиётшуносликка кириш. – Т.: Ўқитувчи, 1995.
30. Шепилова Т. Французские фразеологические единицы с компонентом-зоонимом. – М.: 2001.
31. Шабанов Ж., Ҳамидов Х. Уй ҳайвонлари номига асосланган мақол ва ибораларнинг таржимада берилиши. // Таржима масалалари. ТошДШИ. – Тошкент: 2014. № 2.
32. Шомақсудов Ш., Шораҳмедов Ш. Маънолар маҳзани. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2001.
33. Zohidov T.Z. Zoologiya ensiklopediyasi. Qushlar. – Toshkent, 1957.
34. Sanz Martín B.E. Polisemia de los zoonimos perro y gato. – Madrid: Espasa, 2006, – P.63.
35. Salimova B. Ingliz tilida hayvon nomlarining qoʻllanishi bilan kelgan frazeologik birliklarning qoʻllanishiga doir. // Замонавий филология ва лингводидактика масалалари. Илмий мақолалар тўплами. – Самарқанд: 2015. № 2. 214-215 б.
36. Langacker, Ronald. W: - An introduction to Cognitive Grammar, Cognitive Science 10, 1986. P.1-40.
37. Rooth, Anna Birgitta: —Domestic animals and wild animals as symbol and referents in the proverbs, Proverbium. Yearbook of International Proverb Scholarship 2, 1968, – P.286-288.
38. Fillmore, Charles: —Frame semantics, en The Linguistic Society of Korea (ed.): Korea: Banshin Publishing Company, 1982. – P.113-137.
40. Langacker, Ronald W.: Foundations of Cognitive Grammar. Volume II: Descriptive Application, Stanford: Stanford University Press. 1991. – P.4.
41. <http://www.corpusdelespanol.org>. Davies, Mark. Corpus del español (100 millones de palabras, siglo XIII - siglo XX, en construcción desde el año 2002).
42. Ullmann, Stephen: Introducción a la ciencia del significado. Madrid:

Aguilar. 1962, 1967. – P.34.

43. Diccionario Real Academia española (DRAE), 2001: Diccionario de la Real Academia de la Lengua Española, vigésima segunda edición, madrid: espasa-Calpe. T. I, II. http://es.wikipedia.org/wiki/Gato_%28danza%29

44. Mamatov A. Frazeologizmlar shakllanishining nazariy asoslari, - Toshkent: 1997. – 28 b.

45. Umarxo‘jayev.M.I "Очерки по совретенной фразеологии"-Toshkent: Fan 1977

46. Rajabova.D Zoofrazeologiamlar orasidagi semantik munosabat-Toshkent: Fan 2013.

Badiiy adabiyotlar ro‘yxati

1. Bois W.Du. The Ordeal of Monsart, ch.XVI
2. Bronte Ch. Jane Eyre.ch.XVII
3. Galsworthy J. The Dark flower
4. Galsworthy I. Caravan. The First and the Last.
5. Galsworthy J. Swan song. Part II, ch II.
6. Gordon G. Let the Day Perish. Part II, ch.XXXIX
7. Lafonten.I “Le Singe et le Chat”
8. Linkoln A. Speech.Reply to National Union League
9. Maugham W.S. The Constant wife. Act 3.
10. Murdoch I. The Sandcastle.ch.8
11. Островский А. Невольница. М.1961,с.56
12. Shakespeare W. Romeo and Juliet.act III,sc.I
13. Shaw B. Caesar and Cleopatra. Act III
14. TheTimes. July 4,1920, Suppl.

Lug‘atlar

1. Ахманова О.С. Словарь лингвистических терминов. – М.:1966. 376 с.
2. Греймас . А.Ж. Курте. Ж. Объяснительный словарь. Семиотика. – М.: 1983.

3. Лингвистический энциклопедический словарь – М.: 1990.
4. Кунин А.В. Курс фразеологический словарь английского языка. – М.: Высшаяшкола, 1970.
5. Новый большой англо-русский словарь – М.:1993.
6. The American Century Dictionary. London: 1983.
7. The Concise Oxford Dictionary-Oxford Dictionary-Oxford, 1990.
8. Collinse Cobuild. Essential English Dictionary Turkey, 1995.
9. Hornby A.S. Oxford Students Dictionary of Current English- М.,1983
Махмудов Н., Худойбергана Д. Ўзбек тили ўхшатишларининг изоҳли лугати. - Тошкент: Маънавият, 2013. – 320 б.
10. Ўзбек тилининг изоҳли лугати 5 жилдлик. – Тошкент, 2008.
11. Butayev.J Nemisch-o‘zbekcha lug‘at. – Toshkent: Fan, 2007.
12. Bo‘ronov.J Inglizcha-o‘zbekcha lug‘at. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nashriyoti, 2001.
13. O‘zbekcha-fransuzcha lug‘at. – Toshkent: O‘qituvchi, 2001.
14. Sodiqova.M Qisqacha o‘zbekcha-ruscha frazeologik lug‘at. – Toshkent: O‘qituvchi, 1989.

Internet saytlar

1. <http://www.idiomconnection.com/animal.html#A10>
2. <http://www.umd.edu>
3. <http://www.info.mag>
4. <http://www.english.language.ru>
5. <http://www.ets.ru>